

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA Q'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

UMUMTEXNIKA FAKULTETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Umumtexnika fakulteti

dekani:_____dots.Y.T.Bobojonov

“_____” 2011 yil

AZIMOVA MEHRIBONU AROLOVNAning

5140700 — Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

***“Tasviriy san'at asaridan nusxa ko'chirish”(Orol' Tansiqboyev asari
asosida) mavzusida yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o'q.N.Berdiyev

QARSHI – 2011

MUNDARIJA:

KIRISH	3
--------------	---

I bob. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish.

1.1. Tasviriy san'at asrlaridan nusxa ko'chirishning o'ziga xos tomonlari.....	8
1.2. Kasb-hunar kollejlarda nusxa ko'chirish darslarining oqitilishi...	15
1.3. Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish darslarida yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llash.....	26

II bob. O'rol Tansiqboyevning “Angren-Qo'qon tog' yo'li” asaridan nusxa ko'chirish.

2.1 Xalq rassomi O'ral Tansiqboyev-O'zbekiston tabiatining mohir kuychisi. “Angren-Qo'qon tog' yo'li” asarining yaratilish tarixi.....	31
2.2. Asardan nusxa olishga tayyorgarlik.....	38
2.3. Moybo'yoqda rangtasvir jarayoni.....	42
2.4. Ranglar koloriti ustida ishlash.....	48
2.5. Asarda havo perspektiasi, yorug' va soylarning qo'llanilishi....	51

XULOSA.....	53
-------------	----

ILOVA.....	55
------------	----

Adabyotlar ro'yxati.....	62
--------------------------	----

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishda o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Vatanimiznimizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va manaviyatining roli beqiyosdir. Xalqimiz ma'naviyat va madaniyatini boyitishda tasviriy san'atning ham o'z o'rni bor. Hozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atni o'qitish borasida ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini mukammal egallashlari kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisining o'zi qalam va bo'yoqlar bilan rangda ifoda etish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan birga, bu sohadagi bilimlarini o'quvchilariga ham yetkaza olishi zarur.

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama ilmiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. Shu maksadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmokda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namuna-laridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashxur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda respublika hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur»i qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xapqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqboldagi rivojla-mishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan.

Talabalar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi fanlarning vazifasi bo'lib qolmasdan, balki barcha fanlar tizimi doirasida, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar kolleji barcha o'quv fanlarining vazifasi sanaladi. Bu boradagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng ko'lamda olib borilib, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha jabhalarida asosiy o'rinni egallashi lozim. Xususan, tasviriy san'atni o'qitilishida bu vazifa talabalarda Vatan tuyg'usini shakllantirish — Ona Vatanga, uning tabiatiga mehr-muhabbat uyg'otish; o'lkamiz boyliklarini asrab-avaylab, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlarga nisbatan ongli va to'g'ri munosabatni tarkib toptirish, ularning ekologik madaniyatni yuksaltirishdan iborat.

«Hozirgi vaqtda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz — jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir», deyiladi Prezidentimiz I.A. Karimovning “Xushyorlikka da'vat” risolasida.¹

Tadqiqotning dolzarbligi. Tasviriy san'atdan yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabalarning har tomonlama mahoratli rassom-pedagoglar darajasiga erishuvini ta'minlashni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Albatta, bu borada tasviriy san'atning barcha tur mashg'ulotlari qatori “Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirishva ” darslariningining ham alohida ahamiyati bor. Ushbu bitiruv-malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi shundaki, unda san'at yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari o'tiladigan bu mashg'ulotlarni hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda yangicha pedagogik texnologiyalar asosida o'tishning uslublari ishlab chiqiladi, va u amaliy mashg'ulotni bajarish bilan mustahkamlanadi. Shuningdek, mavzuni yoritish mobaynida san'atning yosh avlodlarni milliy istiqlol g'oyasi hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi beqiyos imkoniyatlari va undan aynan ana shu mavzu doirasida foydalanishning o'ziga hos tomonlariga to'xtalib o'tiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bitiruv-malakaviy ishda ko'rilayotgan muammo ilgari ham har tomonlama o'rganilib chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan. Masalan, bu muammolar yechimi S.Abdirasilov, B.Boymetov, N.Tolipov tomonidan 2006 yilda chop etilgan “Tasviriy san'at” o'quv qo'llanmasida, K.Hamidova muallifligida tuzilgan “Tasviriy san'at maxsus metodikasi (ma'ruzalar matni) kabi qo'llanmalarida atroflicha ishlab chiqilgan. Ammo bu mavzu doirasida o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash hali to'liq ishlab chiqilmagan. Malakaviy ishda ana shu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari taklif qilingan. Shuningdek, Xalq rassomi O'ral Tansiqboyevning “Angren-Qo'qon tog' yo'li” kartinasining nusxasi birinchi bor amaliy ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishida Kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslari va bu mashg'ulotlar bo'yicha ishlab chiqilgan DTSni o'rganish, san'at asarlaridan nusxa ko'chirish darslarini o'qitishda ilg'or zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yollari haqida tadqiqotlar olib borish maqsad qilib qo'yilgan. Bundan tashqari, bitiruv-malakaviy ishida amaliy ish sifatida Xalq rassomi, mashhur manzarachi musavvir O'ral Tansiqboyevning “Angren-Qo'qon tog' yo'li” kartinasidan nusxa olish vazifasini amaliy bajarish ham maqsad qilib qo'yilgan.

¹ A.Karimov. Xushyorlikka da'vat. Toshkent. O'zbekiston. 1999 yil.

Tadqiqotning vazifalari.

Bitiruv-malakaviy ishini bajarishda quyidagilarni amalga oshirish vazifa qilib qo'yiladi:

- ___ mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish;
- ___ tasviriy san'at texnologiyasi fanining maqsad va vazifalari, kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at yo'nalishlarida o'qitishning Davlat Ta'lim Standartlarini, bu darslarni o'qitishning o'ziga hos jihatlarini ilmiy o'rganish;
- ___ bu fanni o'qitishda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali yo'llarini o'rganish, tatqiq qilish va amaliy ishlab chiqish;
- ___ "tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" ning nazariy asoslarini o'rganish;
- ___ xalq rassomi O'ral Tansiqboyevning "Angren-Qo'qon tog' yo'li" kartinasi reproduksiyalarini izlab topish va uning yaratilish tarixini o'rganish;
- ___ O'ral Tansiqboev hayoti va ijodini o'rganish;
- ___ "Angren-Qo'qon tog' yo'li" kartinasidan moybo'yoqda nusxa alish amaliyotini bajarish;

Tadqiqot metodlari. Analitik taxlil, pedagogik kuzatish, anketa, pedagogik tajriba, sistemallashtirish.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi "Tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tarmoq ta'lim standarti va o'quv dasturlari, Prezident I.A. Karimovning ta'lim tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan nutqlari, unda bayon etilgan yondashuvlari, tadqiqot muammosiga oid ilmiy-metodik pedagogik adabiyotlarga tayanilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Tasviriy san'at bo'yicha zamonaviy ta'lim tizimini tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamasdan qisqaroq vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish, ular tomonidan egallangan sistemali bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yukssak pedagogic mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondoshishni talab etadi. Bulardan, "Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish" (O'. Tansiqboyev asari asosida) mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning o'ziga xos usullari tadbiiq qilinganligidir. Shuningdek, xalq rassomi O'. Tansiqboyevning "Angren-Qo'qon tog' yo'li" kartinasidan nusxa olish uslubiy amaliyoti ham butunlay yangi ish bo'lib, u birinchi bor amaliyotda sinab ko'rilmogda.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy –amaliy ahamiyati.

1. Tasviriy san'at ta'limiga innavatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishga doir ilmiy metodik tavsiyalar bilan boyitildi. Kasb-hunar kollejlari tasviriy san'at darslari misolida tadqiqot mavzusiga oid mashg'ulotning yangi texnologik xaritasi ishlab chiqildi va takomillashtirildi.
2. Tadqiqot mavzusiga oid texnologik sistemali yondoshuv asosida tayyorlangan dars ishlanmalari loyihalari o'quv materiallarini o'zlashtirish samaradorligini oshishiga yordam beradi.
3. Bitiruv-malakaviy ish mavzusi bo'yicha ishlab chiqilgan va bajarilgan amaliy ishdan kasb-hunar kollejlari o'qituvchi va talabalari foydalanishlari mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishning mazmuni. Bitiruv-malakaviy ishning birinchi bobida tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishning nazariy asoslari, o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ushbu darslarning kasb-hunar kollejlari yo'nalishida o'qitilishi, o'qitishning nazariy asoslari hamda, bu darslarni o'qitishda yangi pedagogic texnologiyalardan foydalanish yo'llari tadqiq qilingan. Ikkinchi bobda esa xalq rassomi O'.Tansiqboyevning "Angren-Qo'qon tog'yo'li" kartinasi va undan nusxa olish texnologiyasi ko'rsatib beriladi va u amaliy bajarilishi bilan mustahkamlanadi.

Bitiruv-malakaviy ishning hajmi. Ish kirish, ikki bob, sakkiziz bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar royxatidan iborat bo'lib, oltmish uch sahifadan tashkil topgan.

I bob. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish.

1.1 .Tasviriy san'at asrlaridan nusxa kochirishning o'ziga xos tomonlari.

Tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at namunalarini o'rgatish asosida tayyorlash va tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish faniga tegishli materiallardan to'g'ri foydalanish metodikasi bilan tanishtirish tizimi, bir qator vazifalarni belgilaydi. Tasviriy san'at fanlarida amaliy mashg'ulotlar bajarish uchun turli materiallardan foydalanish mumkin. Har bir bajarilayotgan vazifa uchun ushbu materiallarni to'g'ri tanlay bilish, tasvirni muvaffaqiyatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir.

"Nusxa ko'chirish"- asl asardan qarab yana bir xuddi o'shanday ish bajarish (taqliddan usul qo'llash)dir. Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish azaldan amalda qo'llanilib kelingan.

Tasviriy san'atni o'rgatishning nazariy hamda amaliy qismida qalamtasvir va rangtasvir asarlaridan nusxa olish ham alahida o'rin tutadi. Bu boradagi ishlar o'quv tizimida azaldan

mavjud bo'lib, unga ustoz rassomlar jiddiylik bilan amaliy yondoshganlar. Shogird tayyorlash ishida originallardan nusxa ko'chirish ishiga alohida e'tibor berganliklari va unga yetarlicha vaqt ajratganliklari bejiz emas. Chunki, bilib-bilmay, tajribasizlik bilan taniqli rassom asridan nusxa olish naf keltirmasligi mumkin. Shuning uchun nusxasi olinishi kerak bo'lgan, shu vazifa talaba oldida ko'ndalang bo'lib turgan paytda, uning mohiyati va foydasi nimada ekanligini anglab olish zarur. Buning uchun chzilajak ish u hoh rangtasvir, hoh qalamtasvir yoki xalq amaliy bezak san'ati namunasi bo'lsin uning texnologiyasi, ishlanish uslublari, foydalanilgan taviriy ashyolar jihatidan avval to'liq o'rganilib chiqilishi, so'ngra amaliy tomonga o'tilishi shart. O'tmish rassom- murabbiylari o'z shogirdlariga shu nuqtai nazardan talabchan bo'lganlar. Ular talaba oldiga aniq maqsad sifatida asarni qanday qilib to'g'ri ko'chirish vazifasini qo'yib, uning yo'l yo'riqlarini puxta o'rgatganlar. Avvalombor original ishning yaratilish texnikasi, texnologiyasi tahlil qilingan va uning yangi nusxa-ijrosi uchun nimalar kerakligi oldindan belgilab olingan. Masalan, shogird biror taniqli rassomning namunali, mashhur qalamtasvir asarini ko'chirish kerak bo'lsa, ishni boshlashdan avval u qanday qog'ozga nima bilan chizilganligini aniqlab olingan. Ish qanday bosqichlar asosida, qanday texnik usullarni qo'llab yaratilgani tadqiq qilingan. So'ng bqrcha jarayonlar original ishni ishlash jarayonidagidek bqjqrilgan. Unda rassom qo'llqgan barcha o'ziga xosliklar hisobga olinishi kerakligi e'tiborda tutilgan. Qadimgi badiiy akademiyalarda ham bu ishga jiddiy qaralgan va albatta o'quv jarayonida, ma'lum davr, vaqt soatlar muzey zallarida nusxa ko'chirish mashqlariga ajratilgan. Tasviriy san't sarlaridan nusxa ko'chirish, albatta qalamtasvir va rangtasvir asarlarinisaralab olib o'quv ta'limiga foyda keltiradiganini tanlab olishdan boshlanadi. Bunda ularning murakkablik darajasi ham e'tiborda tutilishi zarur. Ko'proq mashhur rassomlarning asarlaridan namuna sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda ularning qanday tasvirlash yo'llarida ishlanganligi qaytarilishi kerak. Chizuvchi originalni o'ziga talqin qilishi, o'zgartirish kiritishi lozim topilmaydi.

Qalamtasvirlarni nusxa qilib ko'chirishda iloji bo'lsa, asl namunadan ko'chirish, uning o'lchamlari asl namunaga mos kelishi kerak. Aks holda ishdan kichiklashtirib, yoki kichkina reproduksiyadan kattalashtirib chizish jarayoni naf keltirmaydi. Chunki bunda rassom qo'llagan "priyom"larni asliga o'xshatish qiyin. Rangtasvirlardan nusxa ko'chirishda ham o'ziga yarasha qonun-qoidalarga amal qilinishi lozim. Buning uchun avvalo, talaba o'rganishi va o'zlashtirib o'rganishi mumkin bo'lgan jihatlari mavjud bo'lgan asar namunasi tanlab olinadi. Uning o'lchamlari aniqlanib, so'ng usha o'lchamdan bir, bir yarim santimetr kichikroq yoki kattaroq mato tanlanadi. Bunda asliyat qanday matoga (katta to'qimqdami, yoki mayin satxlimi) ishlanganiga qarab ish yuritiladi. Nusxa uchun asliyatdagi kabi materialllar tanlanishi muhin.

Shunda asl nusxasi originalga o'xshab chiqishiga erishiladi. ASgar asar muzey eksponati bo'lsa, uning reproduksiysi qo'l ostida mavjud bo'lsa ana shu namunaning kichik suratini kataklarga chizish orqali kattalashtirib tarxini tushirib tayyorgarlik qilib olish mumkin. Bunda albatta asarning tasviri mashtabga muvofiq olinishi kerak. Shuningdek asarda qanday bo'yoq turlari va xillaridan foydalanilganligini anqlab olish taqoza etiladi. U suyuq yoki quyuq surtmalarda ishlanganligini bilish, o'rganish ham muhim. Nusxa ko'chiruvchi faqat tasvir rejasi emas, balki rassom uslubini, texnik yollarini ham o'xshatish, undan mahorat sirlarini o'rganishi lozim.

Nusxa ko'chirish rangtasvirlar ishlash jarayoni quyidagicha bajariladi:

- _ avval maqsadga muvofiq keladigan asar nusxa reproduksiysi topiladi;
- _ namuna o'lchash asliga yaqin qilib olingan qalamtasviri ishlab chiqiladi;
- _ romga mato tortib gurutlanadi;
- _ asliyatda qanday bo'lsa shunday usulda, texnikada ishlashga hozirlanadi;
- _ asliyatda asosiy rol oynovchi ranglar politrasi tayyorlanadi;
- _ tayyor mato yuzasiga qalamtasvir tushiriladi, bunda qoraqog'ozdan foydalanish mumkin;
- _ qalm tarxi surkalib, ketmasligi uchun uning ustidan jigarrang yoki "o'ltramarin" bo'yoqni suyuqroq qilib kichkina muyqalamda yurgazib chiqiladi;
- _ tavar aniq bo'lgach ostsurtmalar bajariladi;
- _ asta-sekin bo'yoq qatlami uatidan kerakli ranglar o'z vazifasiga ko'ra oshirib (ba'zi yerda suyuq, ba'zi yerda quyuq qilib) boriladi;
- _ rang berish jarayonida tasvir tarxi buzilib ketmaasligi kerak;
- _ avval katta muyqalam ishlatilib, tasvir detallashtirila boshlagach kichikroq muyqalamlarga o'tiladi;
- _ asl asarga bot-bot qarab, o'xshash-o'xshamayotganligi tekshirib turiladi;

Asar nusxasi barcha ko'zda tutilgan talablar bajarilgach nihoyasiga yetkaziladi va xoshiya bilan bezatilishi kerak.

San'at asarlaridan nusxalar olishda tasviriy san'at texnologiyasi bo'yicha ilmiy- nazariy va amaliy jihatlarini talaba va o'quvchilar puxta o'zlashtirishlari kerak.

Texnologiya borasida yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, halq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Tasviriy san'at texnologiyasi va san'at asarlaridan nusxa ko'chirishni o'rganishda bizga ish qurollari va jihozlar kerak bo'ladi. Ular quyidagilardir:

Akvarel va moybo'yoq uchun mo'yqalam, masxitin, qalam, sangina, pastel, ko'mir tayoqchalar, etyudnik, maxsus moslamalar, planshet va shu kabilar kiradi. Ularning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari mavjud bo'lib, ushbu bo'limda ana shu materiallar bilan yaqindan tanishtiramiz. Ushbu materiallarni bilmasdan turib, kerakli maqsadga erishish qiyin albatta.

Qog'oz tasviriy san'atda tasvir chizish uchun ishlatiladigan materiallardan biridir.

Qog'ozning turlari quyidagicha: Vatman, poluvatman va torshun qog'ozlari bo'lib bular eng yaxshi navli qog'ozlardir. Vatman va poluvatman qog'ozlarida qalamtasvir, grafik ishlar bajarish yaxshi samara beradi.

Tarshun qog'ozini yuzi g'adir-budir bo'lib unda akvarel bo'yoqlari uchun juda qulay bo'lib tasvirlangan asar yoki amaliy ishlar juda ham sifatli bo'ladi. Bu qog'ozlarning tarkibiy qismi, juda zich bo'lganligi tufayli tasviriy san'at darslarida juda unumli foydalaniladi. Qog'ozlarning rangli turlari mavjud bo'lib ular bilan sanginada, pastel hamda akvarelda etyudlar va eskizlar chizish mumkin.

Qalam. Tariximizga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy davrda odamlar g'orlarga, tog'u-toshlarga turli xil tasvirlarni ishlab qoldirishgan. Ular tirnoqlari yoki biron-bir qattiqroq narsalar bilan g'orlarning devorlariga tirnolib, turli xil shakllarni yasashgan.

O'chirg'ichlar ikki xil bo'lib, ko'kimtir va oq tusdagilar tasvir chizganda ishlatiladi. Qizg'ish tusdagi o'chirg'ichlardan tasvir chizganda foydalanilmaydi, chunki uning tarkibida «qum oyna» parchalari bo'lib qog'ozni titib yuboradi. Tagliklar har xil tuzilishda bo'lib, tasvir chizilishi lozim bo'lgan narsa, kerakli natura uning ustiga qo'yiladi, mashq bajaruvchi o'zining didiga qarab kompozitsiya tuzishi mumkin.

Pastel rangli qalamchalar bo'lib pastelda ko'pincha homaki tasvirlar (nabroska va zarisavka)lar bajarish mumkin. Pastelda tog' manzaralari, portret, qo'sh va hayvonlarning tasvirini chizishda ko'proq ishlatiladi.

Sangina qalamtasvirlarni ishlashda qo'llanilishi ham foydali. U bilan har qanday tasvirni tez va ifodali qilib chiqarsa bo'ladi, faqat buning uchun uning texnikasini egallash kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tasvirlash vositalarini uzoq muddatda bajariladigan, hamda tezkorlik bilan ishlanadigan qalamtasvirlarda birdek muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin.

Sous ma'lumki, sousni suvga qorib mo'yqalamda qog'ozga surtib tus berilsa, so'ngra tasvirni retush qalamida ishlansa, o'chirg'ichdan ham unumli, bilib foydalanilsa har qanday o'quv-mashq vazifani namunali va chiroyli qilib chiqarish mumkin. Tasvirning eng yorug' qismlarini o'chirg'ich yordamida ustalik bilan o'chirib bo'rttirilsa, eng to'q soyalarning sathi qora sous bilan bo'yab yopilsa ish hajm tomondan juda fazoviylik kasb etadi.

Mo'yqalamlar. Mo'yqalamlar ikki xil turga bo'linib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlariga mo'ljallangan. Akvarel bilan ishlashda maxsus akvarel mo'yqalamlaridan foydalanish lozim. Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq shaklda bo'lib, mo'ynasi uch tomoniga qarab ingichkalashib boradi va bu mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Mo'yqalam bilan tasvir chizganda qog'ozning yuzi buzilmasligi uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshoq yunglardan yasaladi.

Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, savsar, yunglardan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning yana bir turi moyli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar bo'lib kurakchasimon va yumaloq shaklda bo'ladi. Mo'yqalamlarning bandida raqami bo'ladi. Bu raqam mo'yqalam mo'y qismining kengligini bildiradi. Raqamlardagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi.

Shuning uchun moyli bo'yoqlar va akvarel bilan ishlashda mo'yqalamning kerakli raqami yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida mo'yqalamlarning raqamlariga qarab ish jarayonida ishlatiladi.

Matoni gruntlash. Moyli bo'yoqlar bilan rangtasvir ishini bajarish uchun maxsus tayyorlangan ashyolar-mato, taxta yoki qalin qog'oz bo'lish shart. Bular orasida eng keng tarqalgani – mato (xolos). Uni ishga tayyorlash uchun suyuq yelim va oq bo'yoq kukunidan maxsus qorishma (grunt) tayyorlanadi. Gruntlashdan avvalo mato tagramga tortiladi.

Tagram quruq taxtachalardan tayyorlanadi, taxtachalar bir-biri bilan yog'och qoziqchalar biriktiriladi. Qiyshayib ketmasligi uchun unga matoni mixlashni ramkaning o'rtasidan boshlab, burchagi tomon asta tekislab boriladi va mixlar ham 1,5-2 sm masofada qoqiladi. Tortilgan mato avvalo katta mo'yqalam bilan ho'llanadi, u qurigach bir sidra yelim eritmasi yupqa qatldam qilib surtiladi.

Yelimni tayyorlash uchun uni maydalab, sovuq suvda bir necha soat ivitib quyidagi va maxsus idishga solib, qaynab ketishiga yo'l qo'ymasdan, kavlab turib sust olovda eritiladi. Yelimlangan mato quyosh tushmaydigan soya joyda, xona ichida quritiladi. Bir necha soatdan so'ng yelim qatlami qurilgach mato usti qumqog'oz bilan ishlov berilib silliqilanadi. Uning to'qimasi oralari yaxshi yopilguncha bir necha marta yana yelim qorishmasi surtiladi. Gurunt tayyorlash uchun 1:5 yoki 1:20 miqdorida yelim eritmasi tayyorlanadi. Unga oq bo'yoq qo'shib qaymoqsimon holatga kelguncha qorishtiriladi va matoga so'nggi marta surkaladi. Gurunt tayyorlash uchun yelim eritmasi Mayin bo'r kukuni qo'shsa ham bo'ladi. Uni quyidagicha tayyorlab ishlatlsa ham maqsadga muvofiq keladi. Avvalo idishga bo'r kukuni solinadi, so'ngra suv quyib tez-tez qorishtiriladi, biroz tindirib, ustidagi sutga o'xshash suyuqlik boshqa idishga

olinadi. Bo'ning quyi qasi idish tagida qoladi. Bir oz vaqt o'tgach, ikkinchi idishning tagiga bo'ning Mayin erigan zarrachalari cho'kadi, undan matoga ishlov berish ishida bemalol foydalansa bo'ladi. Bunday birikma bilan yelimlangan matoni bir marta tekis qilib qoplansa kifoya.

Agar ikkinchi marta gruntlash zarur bo'lsa, eritmaga bo'r kukuni bilan barobar miqdorda oq bo'yoq kukuni qo'shish lozim bo'ladi.

Moybo'yoqlar bilan ishlaganda ularning ba'zi birlari mato yaxshi, ba'zi esa yomon surkaladi. Ularning bu xususiyatidan bilib, unumli foydalanish kerak.

Ma'lumki, rangtasvir asarlarining mustahkamligi va uzoq saqlanishi gruntlarning sifatiga bog'liq. Sifatsiz qoplama (grunt) asar sathining tez orada yorilib ketishiga, uning bo'yoqlari ko'chib ketishiga asosiy sababchi bo'ladi. O'zlari qoplama, tayyorlab matoga ishlov beruvchi rassomlar yoki o'quvchilar ularni tayyorlash qoidalariga katta e'tibor berishlari kerak.

Politra.

Moybo'yoq bilan rangtasvir ishlash uchun Palitra va boshqa asbob-uskunalar zarur bo'ladi.

Palitrani qattiq va yengil daraxt turlaridan tayyorlanadi. Ularning eng yaxshisi yong'oq, o'rik, tut daraxtlaridir.

Palitralar oval va to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishi mumkin.

Katta hajmdagi surat ishlash uchun kattaroq palitra ishlatish maqsadga muvofiqdir.

«Tubik»dan siqib tushirilgan bo'yoqlarning moyini shimib ketmasligi uchun palitraga qaynatilgan kanop moyini surkab shimdirish lozim, 2-3 kun turgandan so'ng palitradagi moy shimilib quriydi, keyin unga tubikdan bo'yoqlarni quyidagi tartibdi joylashtirish mumkin. Oq, sariq, zarg'aldoq, qizil, oxra, jigarrang, yashil, havorang va hokazo. Ular to'q ochligi yoki iliq yoki sovuq ranglar bo'yicha ajratib chiqarilishi ham mumkin. Palitrani ishlatib bo'lgandan so'ng albatta mastixin bilan tozalab, latta bilan artib qo'yishga odatlanish lozim.

Bo'yoqlarni quyidagi tartibda quyilsa ishlash uchun qulay bo'ladi:

Yuqori qatorda o'ng tomondan issiq bo'yoqlar – oq, sariq, zarg'aldoq, qizil, jigarrang, Palitraning chap tomonidan sovuq rangdagi bo'yoqlar barikaram, ko'k, zangori, qora joylashtiriladi, bunda biz iliq va sovuq ranglarni yaqqol ajrata olamiz. Palitraning o'rta qismida esa bo'yoqlarni qorishtirish va aralashtirish mumkin.

Rangtasvir bilan shug'ullanganimizda, albatta, palitrani chap qo'limiz bilan ushlab, o'ng qo'l bilan bo'yoqlarni qorishtirib, rangni topamiz. Nima uchun biz palitrani chap qo'l bilan ushlab, qo'limizga yaqinroq olib kelib rang topamizq Bunga bir misol keltiraylik. Yevropa qoidasiga muvofiq skripka chalganda chap yelkasiga skripkaning tag tomonini qo'yib chalsa, chaluvchining qulog'iga tovush ohanglarining nozik tomonlari yaxshi eshitiladi. Rangtasvirda

esa rassom politrada bo'yoqlarni aralashtirayotganda ko'zga yaqin olib kelsa, qorishtirilayotgan bo'yoqlarning nozik ranglarini osonlik bilan topa oladi.

Masxitin moy bo'yoqlarda ishlatiladigan ish quroli. Bunda ranglarni bir-biriga aralashtirish va qalin qatlam yuzasiga ranglarni berishda foydalaniladi.

Masxitin yordamida keskin va uzib-uzib ishlash, ularga mazok berish usulida keng foydalanish mumkin.

Etyudnik – etyud ishlashga moslashtirilgan ko'chma dastgoh. Bunda rangtasvir mashg'ulotlarida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Etyudnikning qulayligi shundaki moy bo'yoq mashg'ulotlarida ishlatiladigan barcha ish qurollarini joylashtirish mumkin.

Etyudnikning yana bir qulayligi shundaki, duch kelgan joyda ya'ni har xil sharoitda etyud ishlash uchun kerakli ko'chma dastgohdir.

1.2 . Kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish darslarining oqitilishi.

San'at yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rang sezishi va tasavurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaratgan asarlar go'za-lliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi. Ma'lumki, tasviriy san'at yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarda tasviriy san'at mashg'ulotlari o'z mazmuniga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bular- rangtasvir, kompozitsion faoliyat, dizayn va san'atshunoslik darslardir.

Kasb-hunar kollejlarda tarmoq Davlat Ta'lim Standartlarining ishlab chiqilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshorishning asosiy mezonlaridandir.

3210800-Rangtasvir (san'at turlari bo'yicha) tayyorlov yo'nalishi bo'yicha kichik mutaxassis tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazi, Benkov nomidagi Respublika rassomchilik kolleji tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2006 yil "10" avgustdagi 186-sonli buyrug'I bilan tasdiqlangan hamda amalga kiritilgan.

Mazkur tarmoq ta'lim standarti «Amaliy va tasviriy san'at asarlarini qayta tiklash va saqlash» mutaxassisligi bo'yicha kichik mutaxassislar tayyorlashning zaruriy bilimlar mazmuniga va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar va pirovard maqsadlarini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarning o'quv yuklamalari hajmi va standart talablarini bajarilish nazoratini belgilab beradi.

Tarmoq ta'lim standarti talablari ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati va darajasini baholashda hamda ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazishda asosiy mezon

hisoblanadi. Mazkur talablarning bajarilishi Urta maxsus, kasb-hunar ta'limi (O`MKHT) ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga kasbiy ta'limning tegishli darajasini olganligi to`g`risida davlat namunasidagi hujjat berilishi uchun asos hisoblanadi.

Standartning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Standartlashtirishning maqsadi:

- amaliy va tasviriy san'at asarlarini qayta tiklash va saqlash mutaxassisligi bo'yicha sifatli kasbga o`rgatishning davlat tomonidan kafolatlanishini va uning ekvivalentligini mehnat bozori talablariga mos holda davlat va nodavlat muassasalari darajasida ta'lim xizmati mazmuni va yakuniy maqsadi talablari reglamentiga to`g`ri kelishini ta'minlash;
- O`MKHT tizimi, mehnat bozori va jamiyat o`rtasidagi o`zaro hamda qayta munosabatlarni qonuniy ravishda o`rnatishdan iborat.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- kichik mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo`yiladigan zaruriy talablarni belgilash;
- amaliy va tasviriy san'at asarlarini qayta tiklash va saqlash mutaxassisligi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablarini rivojlangan mamlakatlarning shu yo`nalishdagi standart talablari bilan muvofiqlashtirish;
- o`quv reja va dasturlar, bitiruvchilarga beriladigan diplom va sertifikatlar hamda ularning egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini o`zlashtirish darajalarini nazorat qilish usullari va baholash mezonlari to`g`risidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratish.

Rangtasvir tayyorlov yo`nalishidagi qayta tiklash rassomi va san'at asarlari asrovchisi mutaxassisligida "Nusxa ko'chirish" fani maxsus fanlar qatoriga kiradi. Bu fanga asosan 194 soat auditoriya soatlari va 81 soat mustaqil ta'lim soatlari, jami 275 soat dars soatlari ajratilgan.

Ushbu fan bo'yicha quyidagi mavzular bo'yicha mashg'ulotlar olib borilishi o'tilishi rejalashtirilgan:

1. Dastur asosida berilgan fragment. 19 asr boshida (ganch,panno).
- 2.Berilgan ulchamning konstruksion-analizining chizmasi. (ganch, panno)
- 3 Chizilgan fragmentni loyiugasini rang quyilgan texnologiyasi asosida bo'yab chiqishi, (suv buyoq, tempera,tush').
- 4.DSM-dastur asosida berilgan fragm. 19 asr oxiri (gulli girix) .
- 5.Berilgan (gulli grix) pannosini ulchash konstruksion-analizi chizmasini (pardoz formasi) chiqarish.
- 6.Artogonal ko'rinishda loyiugasini (tonovoe otmivka) texnikasida ishlash

- 7.Chizilgan fragmentini loyihasini rang quyilgan texnologiyasi asosida bo'yab chiqishi, (suvbuyoq, tempera,tush').
- 8.O'zbekiston ujudida topilgan metal va kulolchilik buyumlari haqida ma'lumoti.
- 9.Kulolchilik buyumlari (vaza, lagan) nusxasini olishi.
- 10.Metall buyumlaridan (kumg'on,patnis) nusxa olish.
- 11.Chizilgan buyumlarni rang quyilgan texnologiyasi asosida bo'yab chiqish, (suvbuyoq, tempera,tush').
- 12.Me'moriy yodgor fasad dekorida bezatilgani (mozaika, mayolika).
- 13.Mozaika fragmenti chizma loyihasini ko'rsatish (artogonal kurinishi).
14. Mozaika fragmenti chizma loyihasini ko'rsatish (artogonal ko'rinishi).
15. Dastgohli rangtasvir asarlaridan nusxa olish.Badiiy fondidan dastgohli asarlarini imitatsiya texnologiyasi ishlari tanlash.
16. Mahobatli rangtasvir ishlaridan nusxa olish.
- 17.Mahobatli fragmenti chizma loyihasini ko'rsatish. (artogonal ko'rinishi).
- 18.Tonirovka, himoya qalinligi (texnika texnologiya) asosida yuritish.
19. 10-14 asr. Devoriy sur'at fragmentini (levkas, buyoq)qalinligini ta'mirlash.
- 20.Tonirovka, himoya qalinligi (texnika texnologiya) asosida polimerlari retseptini ishlatish.

Yoshlarni badiiy jihatdan tarbiyalash va ularning kasb mahoratlarini oshirishda nusxa ko'chirish faninining alohida o'rnini bor. "Tasviriy san'at" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning bu fanni yaxshiroq o'rganishlari uchun uni boshqa fanlar yordamida tushuntirishga harakat qilinadi. Chunki bu fan fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va estetika fanlari bilan chambarchas bog'langandir.

Nusxa ko'chirish fanianni o'tishdan maqsad, bo'lajak rassom-larga tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida asosiy bo'g'im hisoblangan tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish fanining nazariy hamda amaliy jihatlarini puxta egallashlarida yordam berish va malakali kadrlarni tayyorlashdir.

Texnologiya borasida yetarli bilim va malakalarni egallamay turib, talaba kompozitsiya, qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik, halq amaliy san'ati va boshqa fanlarni yuqori darajada o'zlashtira olmaydi. Nusxa ko'shish fani mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Fanining vazifasi talabalarda ijodiy tasavvurni o'stirish, hayotdagi voqelikni ko'rib idrok etish, badiiy did va madaniyatni tarkib toptirish, barcha san'at sohalarida tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishni yo'llay bilishi, fandan olgan bilimlarni o'z kasbida unumli foydalanishni ta'minlashdan iboratdir.

- « Nusxa ko'chirish» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida o'quvchi:

- - tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishning asosiy qonunlarini, zamonaviy san'at jarayonini, o'tmish madaniy merosimizni, tasviriy san'at terminlarini, har turli badiiy materiallar vositasida amaliy ishlarni bajara olishni bilishi kerak.

- talaba tasviriy san'at tur va janrlarida tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish xususiyatlarini ajrata olish, o'ziga xosligidan foydalana bilish, rangtasvir, nusxa ko'chirishning alohida xususiyatlari va ularning farqlarini tahlil qila olish, grafika san'ati, kitob grafikasi, plakat hamda badiiy bezak san'ati, tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish xususida fikr yurita olish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

talaba tasviriy san'at texnologiyasining kopmozitsiya fanidagi o'rni, kompozitsiya markazi, konstruksiya, syujet, dinamika, yaxlitlik, ritm to'g'risida chuqur fikr yurita olish, natyurmort, manzara, portret, qomatlarga qarab nusxa ko'chirish yo'llari, nisbatlar, simmetriya, assimetriya, frontal va hajmli tasviriy kompozitsiya, tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish tarixi va nazariyasi, tasviriy san'at tur va janrlari, ijodiy jarayon bosqichlarini har tomonlama chuqur bilishlari kerak. Ular butun o'qish, o'rganish jarayonida mavjud o'quv rejasiga binoan berilgan mavzularda amaliy mashg'ulot vazifalarini auditoriyada va uyda bajaradilar. O'quv kursining ma'lum bo'limlari o'tilgach va o'quv ishlanmalari to'liq bajarilgandan so'ng nusxa ko'chirishga oid mashqlar turkumini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi kerak.

“Nusxa ko'chirish” fani talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida tasviriy san'at texnologiyalari va nusxa ko'chirish bo'yicha mahoratini shakllantirish, umumiy o'rta va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tasviriy san'at texnologiyasining tarixiy, rivojlanishi, o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berish, tasviriy san'at o'qitishni axborot va pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etishga o'rgatish, nazariy, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, mustaqil ishlarni tashkil etish, mashg'ulotlar uchun zarur ko'rgazmali qurollar yaratish, mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha namunali darslarini tashkil etish kabilar bilan ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi va ta'limda hamda ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishning asosiy qonuniyatlari.

Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish ustida ishlash jarayonining mohiyati va dinamikasi. Yaxlitlik qonuni tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishning fikr bilan uyqunligi, birligi shakl va mazmun birligining o'zaro muvofiqligi, shaklning mazmunga bo'ysunishi, barcha qoyalarni turli ifoda vositalari bilan namoyon ettirish yo'llari. Kontrastlilik

qonuni. Kontrast turlari: qajmdorlik va yassilik, tarx va siluet, yoruq va qoronqu, iliq va sovuq, rangdor va tussiz, o'lchamlar kontrasti, shakllar kontrasti, ranglar kontrasti.

Badiiy ijod kuchlari – meqnat, iroda, ilqomlanish. Ijodning samara beruvchi kuchlari-fikrlash, sezgi va tasavvur. Badiiy ijod komponentlari - bilim, dunyoqarash, badiiy uslub, badiiy nafosat, did, maqorat va boshqalar.

Nusha ko'chirish fanining maqsadi va vazifalari.

Tasviriy san'at o'qituvchilarini tasviriy san'at namunalarini o'rgatish asosida tayyorlash va tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish faniga tegishli materiallardan to'qri foydalanish metodikasi bilan tanishtirish tizimi, bir qator vazifalarni belgilaydi. Tasviriy san'at fanlarida amaliy mashqulotlar bajarish uchun turli materiallardan foydalanish mumkin. qar bir bajarilayotgan vazifa uchun ushbu materiallarni to'qri tanlay bilish, tasvirni muvaffaqiyatli bo'lishida katta aqamiyatga egadir.

Tasviriy san'at texnologiyasi mashqulotlari qalamtasvir, rangtasvir va xalq amaliy san'ati turlarini deyarli barchasida ishlatiladigan materiallar va qurollarni tayyorlashning asosiy qonun-qoidalari.

Talabalarga quruq qolda ishlatiladigan va suyuq qolda ishlatiladigan materiallar to'qrisida tushuncha berish.

Nusha ko'chirish mash'ulotlarida qadimgi ustalarning rangtasvir asarlari xususiyatlarini o'rganish va rassomlarning asarlarini taqlil qilish.

Qadimgi va qozirgi kundagi taniqli rassomlarning grafik va rangtasvir asarlaridan nusqa ko'chirishning asosiy qonun qoidalari.

Rangshunoslik asoslari.

Ranglarning tabiatda qosil bo'lishi va tarqalishi ularning atrof-muqit ta'sirida o'zgarib ko'rinishi, bo'yoqlarni tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llari.

Rangshunoslikning qisqacha mazmuni. Axromatik va xromatik ranglar xaqida. Issiq va sovuq ranglardan foydalanish yo'llari.

Ranglar xaqida umumiy tushuncha.

Ranglarning birligi, natura ranglardagi uyqunlik, ranglar muqitini o'rganish qamda qavo va yoruqlik perspektivasi. Rang tuslarining nomlari va ularning xarakterli xususiyatlarini o'rgatish.

Ranglarni aralashtirish texnologiyasi

Ranglarni optik aralashmalari va ranglarning fazoviy aralashmalari. Ranglarning mexanik aralashuvlari. Uchta asosiy rang qaqida ranglarni aralashtirishning ikkita asosiy uslubi qamda aylantirgich yordamida ranglarni aralashtirish

Ranglarni ko'rib aralashtirish. Bo'yoqlarni aralashtirish uchun rang aylanasi. Asosiy ranglar yordamida boshqa qamma ranglarni yaratish.

Rangni anglash va qis qilishning bazi bir o'ziga xos xususiyatlari.

Rangni his qilish. Umumiy ma'lumotlar haqida talabalarga tushuncha berish. Ranglarni his qilishda ko'zlarning xususiyati. Adaptatsiya (ko'nikma, ko'nikish), ranglarda kontrast ko'rinishlar va talabalarga kolorit tushunchasi qakida ma'lumot berish. Tonlarning qalin va og'irligi.

Rangning ba'zi bir o'ziga qos xususiyatlari. Ranglarning qalinligi va engilligi. Rangni yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish.

Suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar va materiallar.

Akvarel qaqida umumiy malumot. Akvarel bilan ishlash texnologiyasi. Natyurmort yoki manzara ishlashda akvarel bo'yoqlaridan foydalanishning qonun qoidalari.

Guash bo'yoqi qaqida umumiy tushuncha.

Tempera bo'yoqi qaqida talabalarga malumot berish. Guash va tempera bilan ishlashning aloqida asosiy texnologiyasi.

Moybo'yoqda rangtasvir ishlash texnologiyasi .

Moybo'yoq qakida umumiy malumotlar. Gruntlash va qoplovchi qatlam tayyorlash yo'llari. Moybo'yokda ishlatiladigan yoqlar, loklar va eritgichlar. Rangtasvirni lok bilan qoplash. Moy bo'yoqda ishlashga oid umumiy ko'rsatmalar va uning amaliy aqamiyati.

Nusqa ko'chirishning asoslari.

Rassom ustalarning badiiy asarlaridan nusxa olish yo'llari. Grafik rassomlarning badiiy asarlaridan nusxa ko'chirish. Rangtasvirchi rassomlarning ijodidan nusxa ko'chirish texnologiyasi. Rassomlarning asarlarini taqlil qilish yo'llari.

Amaliy mashqulotlar

Planshet taxta tayyorlash va unga qoqozni tortish qonun-qoidalari. Planshet tayyorlashning yo'llarini o'rgatish. qoqoz turlari qaqida tushuncha berish. Planshetga qoqozni tortishning qonun-qoidalari.

Qalamtasvir uchun ishlatiladigan materiallar va qurollar. Oddiy qora qalam to'qrisida ma'lumot berish. Ko'mir tayoqchalarni ishlatish va uni tayyorlash. O'chirqichning turlari, taglik va yoritqichni ishlatish qamda undan foydalanish.

Akvarel bo'yoqlar bilan ishlash.

Amaliy mashqlar bajarishda mo'yqalamning aqamiyati va rang texnologiyasi. Akvarel bo'yoqlarining xususiyatlari. Akvarel bo'yoqlari bilan ishlash texnologiyasi. Ranglar qaqida ma'lumot berish va undan foydalanish usullari. Mo'yqalamni ishlatish va saqlash texnologiyasi.

Bo'yoqlarni aralashtirish va asosiy ranglar yordamida boshqa qamma ranglarni yaratish. Spektr ranglarning aralashuvi va ranglarni aralashtirish natijasida boshqa ranglarni qosil qilish yo'llari. Ranglarning optik, fazoviy mexanik aralashuvlari texnologiyasini o'rgatish. Ranglar aylanasi va bo'yoqlarni aralashtirish metodikasini o'rganish.

Akvarelda naturadan rangtasvir ishlash jarayoni. Akvarel bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish. Kerakli bo'yoqlarni maqsus suv bilan aralashtirib tayyorlash. Iliq va sovuq ranglarni aralashtirib yangi ranglarni qosil qilish yo'llarini o'rgatish. Akvarel bilan ishlash malakasini oshirish.

Moybo'yoq ishlash uchun gruntlash va tagrom tayyorlash texnologiyasi. Moybo'yoqlar bilan ishlash uchun maxsus tayyorlangan materiallar ° mato, taxta yoki karton qaqida tushuncha berish va ularni gruntlash texnologiyasini o'rgatish. Tagrom tayyorlash texnologiyasini tayyorlash usuli.

Mo'yqalam va suyiltirgichda ishlash texnologiyasi qamda ranglarni aralashtirish yo'llari. Moybo'yoqda ishlatiladigan mo'yqalamlarning turlari qaqida ma'lumot berish. Suyiltirgich va loklarni qo'shib aralashtirish texnologiyasini o'rgatish. Ranglarni aralashtirib tasvirlash maqoratini takomillashtirish.

Moybo'yoqda naturadan rangtasvir ishlash jarayoni. Moybo'yoqda rangtasvir ishlashning o'ziga xos tartib-qoidalarini o'rgatish. Talabalarning rangtasvir ishlash jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.

Guash bo'yoqi texnologiyasi bilan ishlash yo'llari, ishlatiladigan ashyolar va ularni tayyorlash. Guash bo'yoqlarining xususiyatlari. Guash bo'yoqlari bilan ishlash texnologiyasi. Guash bo'yoqlarida ishlatiladigan materiallar.

Guash bo'yoqi bilan amaliy mashqulot bajarish. Guash bo'yoqi bilan ishlash texnikasini puxta o'zlashtirish. Guash bilan ishlash malakasini oshirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish.

Tempera bo'yoqi texnologiyasida ishlash yo'llari va amaliy mashqulot bajarish. Tempera bo'yoqlarining xususiyatlari. Tempera bo'yoqlari bilan ishlash texnologiyasi. Tempera bo'yoqlarida ishlatiladigan materiallar va talabalarni temperada ishlash malakasini oshirish.

Sangina va pastelning xususiyatlari va undan foydalanish yo'llari va amaliy mashq bajarish. Sanginaning o'ziga xos xususiyati va ishlatiladigan materiallar. Pastelni ishlatish texnologiyasi va amaliy mashqulotlarda foydalanish yo'llarini o'rgatish.

Nusqa ko'chirish texnologiyasi

Nusqa ko'chirish texnologiyasi va rassomlar asarlarining taqlili. Usta rassomlar asarlarini nusqasini ko'chirish texnologiyasini o'rgatish. Rassomlarning yaratgan asarlarini taqlil qilib talabalarining ijodiy tasavvurini shakllantirish.

Natyurmort janrida ijod qilgan rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirish. Rassom tomonidan yaratilgan asarni nusqasini ko'chirib ularning texnologiyasini o'rganish.

Portret janrida ishlagan rassomlarning asarlaridan nusqa ko'chirish. Rassomlarning qar-qil tuzilishda yaratilgan asarlarning nusqasini ko'chirish texnologiyasini o'rgatish.

Manzara janrida ijod qilgan rassomlarning asarlaridan nusqa ko'chirish. Rassomlarning manzara janrida yaratilgan har xil mavzudagi san'at asarlarining nusqasini ko'chirib ularning texnikasini o'rganish. Har xil janrlarda ishlagan Sharq va g'arb rassomlari badiiy asarlaridan nusqa ko'chirish. Nusqa ko'chirish texnologiyasini o'rganish va talabalarining ijodiy tasavvurini o'stirish.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmunidarslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'rganish;

maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

Talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan boqliq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashqulotlari;

Masofaviy (distantion) ta'lim.

Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Tasviriyy san'at texnologiyasi va nusqa ko'chirish fanlaridan nazariy va amaliy mashqulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni taqlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Badiiy asarlarni estetik-qoyaviy jihatdan taqlil qilish, klassik asarlar matni ustida ishlash, adabiy jarayonni kuzatib borish. Malakaviy amaliyotni o'tish choqida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lamli ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan boqliq qolda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini qisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Usta rassom va pedagoglarning rangtasvir bo'yicha yaratgan asarlarini taqlil qilish;
2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etgan plakatlarini o'rganish;
3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish;
4. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, qamda ularning asarlaridan nusqalar olish;
5. Asarlarning namunalari (reproduksiya) bilan tanishib, ularni taqlil qilish.
6. Tezkor yordamchi vazifani o'tovchi ranglavqalar va chizmatasvirlar bajarish.
7. Maxsus tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish bo'yicha chiqarilgan qo'llanma va kitoblar mutolaasi.
8. Tabiat qo'ynida yordamchi ashyolar (ranglavqa va chizmalavqalar) to'plash.
9. Aniq tanlab olingan joyda aslidan qarab ranglavqalar ishlash.
10. Taniqli rassomlar (portretchi ijodkorlar) asarlarini ko'rib tahlil qilish, uslublarini o'rganish.
11. Me'moriy loyiqalardagi maqobatli san'atga oid namunalar bilan yaqindan tanishish. Bino inter'eri va ekster'eri borib ko'rish, nusqalar olish.

1.3 Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish darslarida yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llash.

Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishga oid bo'lgan qadimgi rassomlarning asarlari, xalq ustalari tomonidan yaratilgan ijod namunalari, ulardan suratga olingan reproduksiya. hozirgi zamonaviy rassomlar va xalq amaliy san'ati ustalari bajargan ijodiy ishlar hamda ularning rangli va qora-oq tasvirli suratlar to'plami. Talabalar bajargan o'quv – mashg' ishlar asosida tayyorlangan ko'rgazmali qurollar... diafilmlar, slaydalar to'plami, shuningdek tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirishga oid kitoblarda chop etilgan suratlar, internet tizimidagi tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish mavzusidagi saytlar, elektron ma'ruzalar matni, versiyalardan, muzey, ko'rgazma zallarida qo'yilgan asarlardan foydalaniladi.

“Nusxa ko'chirish” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijalarni berishi mumkin. Quyida san'at yo'nalishi kasb-hunar kolejlarida ushbu fan yuzasidan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlarning bitiruv-malakaviy ishi mavzusini tadqiq qilish jarayonida ishlab chiqilgan ishlanmalaridan namunalar keltiramiz:

Mavzu**Tasviriy san't asarlaridan nusxa olish texnologiyasi****1.1. Маърузани олиб бориш технологияси**

<i>Talabalar soni: 22</i>	<i>Vaqt: 2 soat</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Mavzu bo'yicha</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Tasviriy san'at asarlaridan nusxa olish tarixidan. 2. Tasviriy san'at asarlaridan nusxa olish jarayonlari. 3. Rangtasvir asarlaridan nusxa olish bosqichlari.
Mashg'ulotning maqsadi: Tasviriy san'at asarlaridan nusxa olish texnologiyasi haqida umumiy ma'lumotlar berish. O'quvchilarda san'at asarlaridan nusxa olish texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
Tasviriy san'at asarlaridan nusxa olish tarixi haqida tushunchalar berish	Tasviriy san'at asarlaridan nusxa olish tarixi haqida tushunchalarga ega bo'ladi
Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish jarayonlari haqida tushunchalar beradi.	Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish jarayonlarini aytib beradi.
Qalamtasvir asarlaridan nusxa olishning o'ziga hos jihatlar haqida tushunchalar beradi.	Qalamtasvir asarlaridan nusxa olishning o'ziga hos jihatlarini bilib oladi.
Rangtasvir asrlaridan nusxa olishning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtiradi.	Rangtasvir asrlaridan nusxa olishning o'ziga xos jarayonlarini bilib oladi, ularni aytib bera oladi.
<i>O'qitish usullari va texnika</i>	Ma'ruza, «aqliy xujum», T-sxema, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
<i>O'qitish shakllari</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash
<i>O'qitish shart-sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash

Ma'ruzaning texnologik xariitasi

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyatning mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>talaba</i>

I-bosqich. Mavzuga kirish. (15 минут)	1.1. Mavzu doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari bilan taniштиради	Tinglaydilar
	1.2. O'quv mashg'uloti mavzusi bilan tanishtiradi va uning maqsadi, o'quv faoliyati natijalarini bayon qiladi	Mavzu nomini yozib oladilar
	1.3. Berilgan mavzu yuzasidan “aqliy hujum” qoidasi asosida dars o'tkazishni taklif etadi. Doskaga: 1. “Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish deganda nimalar tushuniladi?” 2. Tasviriy san'at asarlaridan olingan nusxalarni asl nusxadan qanday farqlash mumkin?» deb yozadi. Talabalar tomonidan aytilgan fikrlarni yozib boradi va umumlashtiradi (2-ilova)	Tushunchalarni erkin fikr orqali bildiradi
II-bosqich. Asosiy (50 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi	Tinglaydilar
	2.2. Ma'ruzani reja bo'yicha tushuntiradi, har bir rejani nihoyasida umumlashtiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi (3-ilova)	Tinglaydilar. Slaydga e'tibor qaratadi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Har bir rejani mustahkamlash uchun quyidagicha savollar beradi: 1. Tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish tarixi haqida nimalar bilasiz? 2. Nusxa ko'chirish jarayonlari haqida nimalarni bilib oldingiz? 3. Qalamtasvir asarlaridan nusxa olishda nimalarga e'tibor beriladi? 4. Rangtasvir asarlaridan nusxa olish texnologiyalarini aytib bering.	Savollarga javob beradilar, erkin baxs-munozara yuritadilar
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi	har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar. Konspekt qiladilar
III-bosqich. Якуний босқич. (10 минут)	3.1. T-sxema texnikasidan foydalanilgan holda juft-juft bo'lib ishlash uchun tinglovchilarga: „Tasviriy san'at asarlaridan nima uchun nusxalar olinadi?” “Asarlardan nusxalar olish jarayonlarini bilmaslik tasviriy san'at bilan shug'ullanish uchun xalaqit beradimi?”, deb savol yozilgan tarqatma materiallar tarqatilali va olingan javoblar buyicha yakunlovchi xulosa qilinadi.	Mustaqil T-sxemani to'ldiradilar. Erkin fikrini bayon etadi
	3.2. Talabalarning faoliyatiga baho qo'yiladi va	Eshitadi

	rag'batlantiriladi	
	3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi va O'UM ga qaraydilar

2(1.1)-Ilova

«Aqliy hujum»ning asosiy qoidalari:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, soniga qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyalarni mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo echimidan uzoq g'oyalar ham go'llab-ruvvatlanadi;
- barcha g'oyalar yoki ularning asosiy mag'zi (farazlari) qayd etish yo'li bilan yozib olinadi;
- «hujum»ni o'tkazish va vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- beriladigan savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutilishi kerak

3- Ilova

1-slayd.

2-slayd

3-slayd

4 -Ilova

«T - sxema» texnikasi

- bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan; bunda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, bir g'oyaning ikki tomoni, foyda va zararlari;

- tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlash muvaffaqiyati rivojlantirishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkon yaratadi;

T-sxema qonun-qoidalari bilan tanishib chiqadi.
Yakka tarkibda yoki juft-juft bo'lib T-sxemani to'ldiradi

O'z g'oyalarini yozma ravishda o'ng va chap taraflarida yozib chiqadilar. G'oyalar qarama-qarshi bo'lishi mumkin

Sxemadagi g'oyalar taqqoslanishi va yakka tartibda, juft-juft holda yoki kichik guruhlarda to'ldirilishi mumkin

har bir tinglovchi o'z fikrini erkin holda

- ma'ruza yakunida qo'llaniladi

to'liq bayon etishi mumkin

T-sxema jadvali

„Tasviriy san’at asarlaridan nima uchun nusxalar olinadi?“	Asarlardan nusxalar olish jarayonlarini bilmaslik tasviriy san’at bilan shug’ullanish uchun xalaqit beradimi?“

O'qitish jarayonida o'quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi o'larni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, liir bir masa-laga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanish-ga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishishda amaliyot va o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi. Zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beravchi texnologik treninglar o'quvchi — talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

II bob. O'rol Tansiqboyevning "Angren-Qo'qon tog' yo'li" asaridan nusxa ko'chirish.

2.1. Xalq rassomi O'ral Tansiqboyev-O'zbekiston tabiatining mohir kuychisi. "Angren-Qo'qon tog' yo'li" asarining yaratilish tarixi.

Tasviriy faoliyatning nazariyasini muntazam o'rganish, tasviriy san'at ta'limini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy shartlaridandir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan talabagina amaliy ijodda samarali shuqullanishi mumkin. «Kimda-kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa, - u bamisoli suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq qaydovchisidir va u qech qachon qaerga ketayotganligiga to'la ishonch qosil qila olmaydi deya ta'kidlagan Leonardo da Vinchi. Ayniqsa rangtasvir soqasida amaliyot qamisha kuchli nazariyot bilan boqliq qolda amalga oshirilishi zarur va bularsiz qech narsaga erishib bo'lmaydi».¹

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq: «Biz qamma bilimlarimizni aqliy fikrlar bilan mustaxkamlab bormoqimiz lozimki, shunda ikkilanishga qam, esdan chiqishga qam imkon qolmaydi».

Sobiq Ittifoq va O'zbekiston xalq rassomi, ko'plab davlat mukofotlari sovrindori, ustoz san'atkor O'rol Tansiqboyevning ijodida vatanimiz tasviriy san'ati revolining butun bir davri mujassamdir.

O'zbekiston tabiatining mohir kuychisi manzara janrining buyuk ustasi sifatida nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham ma'lum va mashhur ijodkor edi.

O'rol Tansiqboyev 1904 yilning 4 mayida Toshkentda, ishchi oilasida dunyoga keldi. Bo'lg'usi rassom o'n besh yoshida yeti yillik maktyabni tugatib, ustozlar maslahati bilan, dastlab Toshkentdagi san'at muzeyi qoshidagi badiiy studiyada- I.E. Reoinning shogirdi N.V. Razanov rahbarligida tasviriy san'at sirlarini o'rganadi. Keyinchalik esa, Penza badiiy bilim yurtida badiiy bilimlarini oshiradi. Bu bilim yurtida taniqli rus rassomlaridan I.S. Goryushkin- Sorokopudov boshchiligidagi rus sayyor rassomlari va boshqa ilg'or g'oyali ijodkorlarning shonli an'alarini davom ettirib kelayotgan san'atkor-pedagoglar ishlar edi. O. Tansiqboyev bilim yurtini tugatib vataniga qytdi va mustaqil ijodiy faoliyatini boshladi.

Hayot chiroyi- tabiat nafosatini ehtiros bilan ilg'ab olib, uni hayratomuz takrorlab, millionlab san'at shaydolariga tortiq qilib kelgan O'ral Tansiqboyev buyuk baxtga musharraf

ijodkor. U insonlar ko'rib cheksiz zavqlangan, biroq so'z bilan tavsiflashga ojizlik qilgan nabotat go'zalligini bo'yoqli satrlarda yanada nafis, nazokatli qilib tasvirlaydi.

O'ral Tansiqboev quyoshli o'lkamizda manzara janriga asos slogan qaldirg'och rassom. Tabiat kuychisi bu janrni epik manzaralari bilan yuksak pog'analarga ko'tardi. Ustoz musavvir san'atining sehri- asarlarining ovozasi O'rta Osiyo sarhadlaridan oshib ketdi, olamga yoyildi.

Buyuk rus rassomi Ayvazovskiy dunyoga dengiz manzaralari kuychisi sifatida tanilgan va mashhur bo'lgan. Rassomning sokin, jushqin va tufonli hayoti aks ettirilgan ajoyib asarlari turli san'at muzeylari oltin fondodan o'rin olgan. Uning asarlaridagi sehrli kuch tomoshabinlarni doimo hayratga solib kelgan. Bizning vatandoshimiz O'ral Tansiqboyev asarlari ham ana shunday sehrli kuchga ega.

Ural Tansiqboyev diapazoni keng rassom. U tabiatni aks ettiribgina kolmay, balki undagi inson qo'li, akl-zakovati orqali bo'layotgan o'zgarishlarni xam mahorat bilan tasvirlaydi. U Sobiq SSSR Badiiy Akademiyasining muxbir a'zosi. Uzbek tabiat manzara san'atining kuychisi Ural Tansiqboyevning ko'plab asarlari Moskvadagi Tretyakov galereyasi, O'zbekiston Davlat san'at muzeylarida saqlanmoqda.


Urushdan keyingi yillarda Respublikamizda muntazam tashkil etilgan chorijiy davlatlarning badiiy ko'rgazmalari, O'zbekiston tasviriy san'atiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tabiatni yangicha his etish, yangicha talqin qilish xissiyoti paydo bo'la boshladi. O'zbekiston rassomlarining tabiat manzaralariga yana ham ishtiyoqi ortdi.

XX asrning 50 yillarida uzbek manzara janrida Ural Tansiqboyev karvonboshi bo'ldi. Qishlok xo'jalik mavzusiga oid asarlar yarata boshladi.

1950 yilda «O'zbekistonda bahor», «Paxtani sug'orish» asarini yaratdi. Tongda esayotgan mayin shabada va shildirab oqayotgan suv, salqin tabiatning uyg'onishi tomoshabinda quvonchli hissiyotni uyg'otuvchi ta'sirchan vositadir. Xayotning obyektiv qonunlari va inqilobiy rivojlanishining epik holatda yuazaga kelishi «Ona o'lka» (1951 y.), «Tog'qishlog'i. Oqshomi» (1962) kabi asarlarida o'z aksini topdi. Kompozitsiya yechimini -panorama usulida yechish, rassom ijodining xarakterli nuqtalaridan bo'lib qoldi. Ayniqsa, holat cho'lni ochishga bag'ishlangan «Taxyatosh» va «Issiq ko'l» nomli asarlarida namoyon bo'ladi. Manzara kompozitsiyasini panorama usulida asvirlash rassomga xos xususiyatlardan biridir.



«Qayroqqum GES tongi» (1957 y) eng yaxshi industrial manzara asarlaridan biri deb tan olingan. (B.V. Veymarn, U, Tansiqboyev Moskva Izd. Iskustva 1958 g). Asar 1957 yili Moskvada sobiq ittifoq ko'rgazmasida va Bryuseldagi ko'rgazmada namoyish etilib kumush medal bilan takdirlangan. Hozir u Moskvadagi Sharq xalklari Davlat san'at muzeyida saqlanmokda. Qarshimizda katta keng gidroelektrostansiyaning qurilish panoramasi, orkasida biryuza rangli «Qayroqqum» dengizi istalgan kompozitsiya markazi ham gidrostansiya qurilishi namoyon bo'ladi. Tepalikdagi buldozer, to'g'on ustidagi kranlar, oldingi plandagi qumli do'ngliklar, to'g'on orqasidagi cho'l manzarasi, cho'lda hosil bo'layotgan mo'jizani eslatadi. Eng asosiysi manzara asarida qayroqqumda haqiqatni poetik talqin etish mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Yorqin dekorativ iliq, sovuq tuslardagi kontrast pushti, tilla, ko'kbiryuza ranglarda go'zal tabiatning bepoyon kengligidagi kaynok xayot uz aksini topgan. Dengiz sathidagi quyosh nurlarida yarqirab turgan o'ynoki bliklar rassom tomonidan juda katta mahorat bilan tasvirlab berilgan.



O'.Tansiqboyev Qayroqum GESi tongi

U.Tansiqboyev Respublika industriyasini rivojlanishiga bag'ishlangan kuplab asarlar yaratdi. «Olmalikda» (1958 y.), «Sement zavodi» (1960 y.), Chorvok GES qurilishida» (1969-1970 y.) asarlari shular jumlasidandir.


Har bir mo'yqalam sohibi muxlislar e'tiboriga havola qilmoqchi bo'lgan asarini yuzaga chiqarish uchun ozmuncha hozirlik ko'rmaydi, mashaqqat chekmaydi. Shuning uchun ham yetuk asar o'z muallifi uchun nihoyatda qadrlı, va u uzoq yashab qoladi. Bunday umriboqiy asarlar O'rol Tansiqboyev ijodida ko'pchilikni tashkil qiladi.

Rassomning « **Angren-Qo'qon tog' yo'li** » manzar asari 1962 yilda yaratilgan bo'lib, unda vatanimizning go'zal tabiati manzarasi o'zining yorqin ranglari bilan ko'z o'ngimizda gavdalanadi. "Yo'llar- mening yaqin do'stim,- deb yozgan edi rassom "Sovetskaya kul'tura" gazetasining 1972 yil 12 oktyabr sonida e'lon qilingan maqolasida. U olam qo'yniga olib boradi, borliq go'zalligini saxiylik bilan in'om etadi, qadam yetmagan yiroq-yiroqlarga chorlaydi, hayotni, tabiatni anglashga ko'maklashadi. Yo'llar menga jonajon o'lkamning mo'jizakor fo'zalligini ko'rishga imkon beradi, yo'llar mening ist'dodimni charxlaydi. Men manzarachi rassom bo'lib yetishdim..." Bu mashhur rassomning ushbu kartinani yaratish borasidagi dil izzorlari edi.

“ Angren-Qo’qon tog’ yo’li “ mazmunli tematik kartinasi usha paytdagi respublika Rossomlar soyuzi huzuridagi badiiy ko’rgazmalar direksiyasi shofyori Turob aka Shoahmedovning guvohligiga qaraganda shunday dunyoga kelgan: San’atkor shofyordan kelgusi haftaning juma kuni tong saharida yo’lga otlanishib, Farg’ona vodiysini mashinada sayr etib kelishlarini iltimos qilgan. Hamrohlar tun qorong’usida yo’lga tushishib, tong yorishar-yorishmas Angren-Qo’qon tog’ yo’liga yetib kelishgan. Quyosh tog’ ortidan ilk yog’dusini socha boshlagan ajib pallada rassom bir tepalikda to’xtashni iltimos qilgan. U yerga tushib borliqni ancha kuzatgan. yolning chap tomonidagi anchgina tik qiyalikka tushib O’rol aka yigirma minutlar chamasi tik turgandan keyin yo’lning o’ng tomoniga o’tib toshga o’tirdi,- deydi Turob aka._Kun yoyila boshlaganda esa ketdi. Chamamda men bilan kelganini butunlay unutgan edi. Kun tikkaga yaqinlashganida, tushlik qilib olaylik, dedim. U indamay mashinaga o’tirdi-da, - chirog’im,-mashinani orqaga, pastlikka ozgina haydang-chi,-deb iltimos qildi. Chamasi yuz metr yurgach, kengroq yalanglikka kelgach u buyruqnoma ohangda,- to’xtang,-dedi. Yerga tushgach,- siz bemalol tushlik qilavering, men mana bu tepalikdan ham kuzatmoqchiman,-deb usha tomonga odimladi...

Oradan ikki oy o’tgach, “Angren-Qo’qon tog’ yoli”ning dastlabki debocha varianti respublika rassomlarining ko’rgazmasida, yakuni nusxasi esa sobiq Ittifoq Badiiy akademiyasining haqiqiy va muxbir a’zolari ko’rgazmasida namoyish etildi va u munosib bahosini oldi.

U shunday ishlanganki, bir qarashda kishini o’ziga maftun qiladi, ana shunday manzaralarga boy yurtimiz borligidan ko’ngilda faxr va iftixor tuyg’ulari jo’sh o’radi.



— *У.Тансықбаев “Оҳангарон тоғ йўллари»*

Manzaraning oldingi planida kom-ko'k maysalar, o't-o'lanlar, ochilib turgan yorqin rangli tog' gullari, orqa tomonda keng manzaralar, yaraqlab ko'rinib turgan tog' yo'llarini ko'ramiz. Uzoqdagi zalvorli tog'lar, ular tepasidagi bulutlar va tog'lardagi oppoq qorlar, bepayon kengliklar kishiga ajib bir ruh bag'ishlaydi. Tog' bag'ridan oqarib ko'rinayotgan yo'lar insonlarning ulug'vor va yaratuvchanlik mehnatining mahsuli ekanligi Moviy manzara tomoshabinlarni o'z bag'riga chorlayotganday xis qilasiz. Bu kartina katta epik polotna bo'lib, matoga moybo'yoq bilan ishlabgan, xajmi- 200x175sm.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bu asarni yaratilishi ham ulug' rassomning usha moviy tog'larga chiqqan ijodiy safarlarining mevasi hisoblanadi. Ma, lumki ustoz san'atkor o'z asarlarini daimo naturaning o'zidan tasvirlashni xush ko'rgan. U kishi oldin asar mavzusi uchun maxsus joy tanlab, o'sha joyni o'don kuzatgan, faqat shundan keyingina ,bo'lajak asar eskizlarini, et'yudlarini bajargan. Mohir musavvir bunday damlarda bir necha kunlab, xaftalab tog' kishloqlarida, cho'ponlar xuzurida kunoq topgan.

2.2. Asardan nusxa olishga tayyorgarlik.

O'rol Tansiqboeyv asarlaridan nusxa olishga qiziqish meni anchadan buyon qiziqtirib kelar edi. Shuning uchun diplom ishim mavzusini tanlashda ana shu orzuyim amalga oshirilishi uchun imkoniyat eshigi ochilganligini his qilgan holda ishga kirishdim.

Rangtasvirlardan nusxa ko'chirishda ham o'ziga yarasha qonun-qoidalarga amal qilinishi lozim. Buning uchun avvalo, talaba o'rganishi va o'zlashtirib o'rganishi mumkin bo'lgan jihatlari mavjud bo'lgan asar namunasi tanlab olinadi. Uning o'lchamlari aniqlanib, so'ng usha o'lchamdan bir, bir yarim santimetr kichikroq yoki kattaroq mato tanlanadi. Bunda asliyat qanday matoga (katta to'qimqdami, yoki mayin satxlimi) ishlanganiga qarab ish yuritiladi. Nusxa uchun asliyatdagi kabi materiallar tanlanishi muhim. Shunda asl nusxasi originalga o'xshab chiqishiga erishiladi. Agar asar muzey eksponati bo'lsa, uning reproduksiysi qo'l ostida mavjud bo'lsa ana shu namunananing kichik suratini kataklarga chizish orqali kattalashtirib tarxini tushirib tayyorgarlik qilib olish mumkin. Bunda albatta asarning tasviri mashtabga muvofiq olinishi kerak. Shuningdek asarda qanday bo'yoq turlari va xillaridan foydalanilganligini anqlab olish taqoza etiladi. U suyuq yoki quyuq surtmalarda ishlanganligini bilish, o'rganish ham muhim. Nusxa ko'chiruvchi faqat tasvir rejasi emas, balki rassom uslubini, texnik yollarini ham o'xshatish, undan mahorat sirlarini o'rganishi lozim.

Nusxa ko'chirish rangtasvirlar ishlash jarayoni quyidagicha bajariladi:

- _ avval maqsadga muvofiq keladigan asar nusxa reproduksiyasi topiladi;
- _ namuna o'lchash asliga yaqin qilib olingan qalamtasviri ishlab chiqiladi;
- _ romga mato tortib gurutlanadi;
- _ asliyatda qanday bo'lsa shunday usulda, texnikada ishlashga hozirlanadi;
- _ asliyatda asosiy rol oynovchi ranglar politrasi tayyorlanadi;
- _ tayyor mato yuzasiga qalamtasvir tushiriladi, bunda qoraqog'ozdan foydalanish mumkin;
- _ qalm tarxi surkalib, ketmasligi uchun uning ustidan jigarrang yoki "o'ltramarin" bo'yoqni suyuqroq qilib kichkina muyqalamda yurgazib chiqiladi;
- _ tavir aniq bo'lgach ostsurtmalar bajariladi;
- _ asta-sekin bo'yoq qatlami uatidan kerakli ranglar o'z vazifasiga ko'ra oshirib (ba'zi yerda suyuq, ba'zi yerda quyuq qilib) boriladi;
- _ rang berish jarayonida tasvir tarxi buzilib ketmaasligi kerak;
- _ avval katta muyqalam ishlatilib, tasvir detallashtirila boshlagach kichikroq muyqalamlarga o'tiladi;
- _ asl asarga bot-bot qarab, o'xshash-o'xshamayotganligi tekshirib turiladi;

Asar nusxasi barcha ko'zda tutilgan talablar bajarilgach nihoyasiga yetkaziladi va xoshiya bilan bezatilishi kerak.

Bu yerda ham yuqorida aytilgan jihatlariga e'tiborni qaratish kerak edi, shuning uchun tanlangan asarning sifatli ishlangan reproduksiyasiga qarab hamda mavjud manbalardan materiallardan foydalanib, uning o'lchamlari asosida podravnik yasab xolstni tortib mahkamladim. Asarning aslo'lchami-200x175 sm. bo'lganligi uchun uning o'z o'lchamidan bir barobar kichik o'lchamda nusxasini ko'chirishni ma'qul deb topdim. Chunki bu palotni xajmi anchagina katta bo'lganligi, undan nusxa ko'chirish men kabi talaba uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini ich-ichimdan his qilib turar edim.

Xolst (mato) rangtasvir uchun maxsus to'qilgan, chidamli dag'al mato. Unda matoning dag'alligi moybo'yoqlar bilan tasvir yozishda o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Ustoz xolstning bu xususiyatidan tasvir yozishda ustalik bilan foydalangan. U kishi o'rtacha yoki katta hajmdagi manzaralarni tasvirlashda ko'proq mayday taroqli matodan foydalanishni xush ko'rgan. Jajji rasmlarni ishlashda esa yirik fonli xolstni qo'llaganlar. U manzaralarni ishlarkan, xolstni rangli bo'yoqlar bilan chaplashtirib (og'irlashtirib) yubormasdi. Ko'p o'rinda xolst donalarining (to'qimasining) jilvasini yo'qotmaaslikka o'rinardi. va o'ziga xos nafis asar yozishga muvaffaq bo'gan.

Gruntlangan xolstni podramnikka tortishda uni namlamaslik kerak, chunki u quriganidan sung mayda yoriqlar hosil qilib, buyoqlarning boglovchilarini shimadi, bu esa bo'yoqlarning rangsizlanishigagina emas, balki ularni mustahkamligiga ham ta'sir qiladi. Gruntlangan yoki toza xolst oldiniga podramnikni burchaklarga vaqtinchalik mix bilan qoqib chiqiladi, keyin xolstning o'rta qismidagi iplari podramnikka parallel holga kelganidan sung qoqib chiqiladi.

Shundan keyin mixlar podramnikni o'rtasidan tortib ung va chap tomonga qarab tortib chiqiladi.

Xolst maxkamlangandan sung podramnikni bo'rchaklaridagi mixlar sugirib tashlanadi. Xolstni podramnikka tortish uchun maxsus kiskichlardan foydalaniladi. Xolstni qoqishda kichik va o'rtacha podramniklarga mixlarning oraligi 3-4 smdan, kattalari uchun esa 6-8 smdan qo'yiladi. Xolst konussimon mixlarda qoqiladi.

Rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslangan. Rangtasvirni o'rganish – bu tekislikdagi rangli shaklning nisbatlari, konstruktiv qurilishi, xajmi, fazoviy tuzilish usullarini izlash yo'lidir. Shularga bog'liq holda har-bir rassom qalamda buyum va narsalarni perspektiva qonunlariga asoslanib konstruktiv tuzilishi, fazoviy joylashuvi, nisbat, xajmni mukammal tasvirlay olishi zarur. qalamatasvirda rang va tusning yaxlit bir butunlikda garmonik uyqunlashuvi bu haqiqiy rangtasvirdir.

Tasvirda qalamsurat mukammal bo'lishi lozim, aks holda turli bo'yoqlar ham oddiygina narsa va buyumning qurilishi, xajmini savodli ifodalab bermaydi. Xavo perspektivasiga bog'liq

holda ranglarning nozik o'zgarishini ifodalovchi, matoga berilgan rangbarang surtmalar ham, o'z-o'zidan fazoviy kenglikni ko'rsata olmaydi. Faqat perspektiva qoidalariga to'g'ri amal qilib tasvirlangan qalamtasvirgina ranglarni yanada ham jozibali ko'rsatadi.

Agar tabiat manzarasi perspektiva qonun-qoidalariga amal qilinmay tasvirlansa, kenglikni ifodalovchi rangning o'zni ahamiyatsizdir. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi; «Bu 100 % qalamtasvir va 100 % rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir»

Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina, rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvohlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi

Yetuk rassomlarning yaratgan asarlari shunisi bilan diqqatga sazovorki, asar kompozitsiyasining moqirona topilganligi, mavzuning dolzarbligi, issiq va sovuq ranglarning o'zaro qamoxangligi kishini qayratga soladi. Mashhur rangtasvirchi rassomlarning ko'pchiligi avvalambor etuk qalamtasvir ustalaridir. Bular qatoriga K.P.Bryullov, I.I.Shishkin, V.E.Makovskiy, V.D.Polenov, I.E.Repin, M.A.Vrubel, V.A.Serov, K.A.Korovin, A.Abdullaev, O'. Tansiqboev, Z.Inoqomov, M. Nabiev, R. Aqmedov, B. Jalolov, A. Mirzaev, A. Ikromjonov, I. Xaydarov kabilar kiradi.

Rangtasvirda nozik plastik shaklning mavjudligi, nisbatlarning mutanosibligi, qajm, fazoviy sifatlar muqim o'rin egallaydi. Rangtasvirchi rassom naturadagi ana shu jixatlarni to'laqonli aks ettira olsagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Agarda bu jiqlar mavjud bo'lmasa, tasvir o'ta eqtiyotsizlik, pala-partishlik bilan ishlangan sifatsiz ish deb baqolanadi.

Albatta, ustoz san'atkorning "Angren-Qo'qon tog' yo'li" kartinasi nusxasini olishda avvalo, qalamtasvirning puxta va aniq bajarilishiga e'tibor berish kerak edi. Yuqorida nomi keltirilgan kartinaning izlab topilgan bir qancha reproduksiyalari ichidan eng sifatli va xajm jihatidan ham kattaroq husxasini olib, uni ma'lum kattalikdagi teng katakchalarga bo'lib chiqdim. Bu menga asardan nusxa olishda aniqlik va ishning dastlabki bosqichini to'g'ri olib borish uchun imkon berar edi. Shu tariqa asardan olinajak nusxanung qalamtasviri hosil bo'ldi.

2.3. Moybuyoqda rangtasvir jarayoni.

Moybo'yoq va laklar XV asrdan boshlab ishlatilib kelinmoqda. Ularni rang tasvirda qo'llashni Niderlandiyalik aka uka rassomlar Van Deyklar boshlab berganlar. Dastlab o'z asarlarining sathini turli moy va laklar bilan qoplashni sinab ko'rib, ular zig'ir moyi juda tez qurishini bilib qolganlar. Keyinchalik bo'yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va

yorqin bo'yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo'lganlar. Moy bo'yoq texnikasini rivojlantirishga, ular katta xissa ko'shganlar.

XV asrdan boshlab rang tasvirda moy bo'yoq bilan ishlash Yevropa mamlakatlarida asosiy o'rinni egallagan.

Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moyli bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. Shu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra)ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratilib, shu bilan birga to'q ochligiga qarab ajratib joylashtirishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning juda ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rganib olish imkonini beradi. Moybo'yoqda tasvirlarni ishlash rassom uchun ham, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangshunoslik bilan bevosita bog'liq. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni qal etish va oxirlab qolganda uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. Rangtasvirda quyidagi asosiy masalalarni qal etish zarur:

umumiy tus va rang qolatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;

katta rang-tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning «cho'zilishi», aloqida buyumlarning qajmli shakllarining batafsil rangli qayta ishlanishi;

butun tasvirning umumiyligi, yaxlitligi qamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish.

Bu masalalarning qar biri nima bilan yakunlanishini ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashning to'liq rangtasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari oraliqidagi tus va ranglar munosabatining aniq va to'qri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyurmortda ular – fon, natura qo'yilmasidagi stol yuzasi va buyumlar qisoblanadi. Manzarada esa – osmon oraliqidagi er yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o'rta va orqa oraliqidagi ko'rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) «etyud»da noto'qri tasvirlansa, manzaradagi ob'ektlar yoki buyumlar shaklidagi rang tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida qar qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo'lmaydi. qalamtasvirni ishlashda qam taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning «konstruktiv»-ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakl topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi. N.N.Ge bejiz rassomlarni ogoqlantirmagan: «Natura»dagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darqol asosiy soya va yoruqlikni umumiy sinchiklab o'rganib chiqing va qar doim, qar vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan qolda chizing qamda mayda bo'laklarga oqista kirishing. Mana sizlarga chizishning siri».

Rangtasvirda ham, ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalaga 5-10 minut vaqt sarflab, nuturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q (zich) doq qaerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, naturadagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to'yingan) ko'rinadi. Rangning uch xil o'ziga qosligi bo'yicha natura qo'yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatliligi mavjud.

Ob'ektdagi umumiylikni topilishi rassomni naturadagi ikkinchi darajali belgilar, uning mayda bo'laklariga, koloritli masalaga mustasno holda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang qolatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalqitishga qarakat qiladi. Shunday qilib naturaning ranglar qonuniyatlarida qam, asosiyga erishiladi, etyudning keyingi mayda detalli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini avvalo eng och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so'ng eng to'qini topib, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul. Keyingi tuslarga biroz to'qroq va biroz intensiv bo'lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Xattoki baqorgi o't-o'lanlarni tasvirlashda juda eqtiyotkor bo'lish lozim. Uning

yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u tabiiy ko'rinishdan boshqacha bo'lib chiqib qoladi. Shuning uchun, ishga kirishishdan avval, umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo'yoqlar yiqindisida bajarish – och yoki to'q, yorqinlikning (to'yinganlik) qanday chegarasida bo'lishini qam aniqlash muqim. qisqa qilib aytganda, naturaning umumiy tus va rang qolatini bilish kerak. Bunday qolatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda tasvirlashga to'g'ri keladi.

Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlaganda palitradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydanxususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy ob'ekt oraligidagi tus farqlarini topish muqim Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va erning aloqida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Rassomlarning amaliy tajribasida shunday bir jumlar mavjud: «katta yoruqlik», «katta soya», «katta shakl», «katta ranglar munosabati». Bulardan maqsad natura ob'ektini yaxlit ko'rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir. Ana shularni hisobga olgan holda asardan nusxa ko'chirish jarayonini rangda davom ettirar edim.

Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi naturaga hos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan, tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo'yohlar birligini muvaffahiyatli bajara olishmaydi. Naturadan ishlash jarayonida har bir anih holatda koloritni tushunib etish, tusli va rangli holat xususiyatini ko'rsata bilishlari zarur. Xamma gap natura bo'yohlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko'rish va tushunib etishdadir.

Yirik ko'rinishdagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so'ng, yorug'-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug' soyasi, yarim soya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda hajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o'tish mumkin. Issiq va sovuq tuslar tasvir oxangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishni namoyon etadi.

Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo'laklarini chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko'plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug'likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg'ab olish uchun, ish jarayonida atrof muhitga bog'liq bo'lmagan buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o'tganimizdek buyumlarni yaxlit ko'rib,

doimo ularni o'zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug'ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kamroq namoyon bo'lishini, so'ngra esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak.

Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha, haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq, hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialliligi munosabatlarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon atrofdagi tuslar to'g'ri topilmasa qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi. O'rol Tansiqboyev asarlarida masalaning ana shu jihatlariga to'liq e'tibor berganligini asaridan nusxa ko'chirish jarayonida ko'rib, yana bir bor amin bo'ldim.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to'g'ri topilgan rang tuslari bilan naturani, uning xajmli shaklini to'g'ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialliligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallilik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perspektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki er yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar: daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog'larni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiy rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning relefini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak ekanligini mohir musavvir yaxshi bilgan. Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, qamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni «tikilib qarash» kerak. Buyumlar guruxining barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga qam, etyudga qam yaxlit qarash kerak, shunda qaerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilqab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvir ishlash maqoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va qar bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini qamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yiqindisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yiqindisiga yaxlitlik, birlik, shu qismlarning bir-biriga bo'ysunganligi va jamlanganligi qo'shiladi. Akademik E.A.Kibrik tasvirlashning yaxlitligi qaqida shunday yozgan: «Yaxlitlik qonuniga bo'ysunmasdan turib naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl qam, rang qam o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo'ladi».

2.4. Ranglar koloriti ustida ishlash.

Kolorit – bu san'at asarining rang sifatlarini umumiy estetik baholash, asarning barcha rang elementlarini o'zaro aloqasi xarakteri, uning rang to'zilmasi hisoblanadi. Koloritning eng katta xususiyati – ranglarning boyligi va o'zaro bog'liqligidir.

Kolorit – badiiy obrazning eng muhim komponenti, rangtasvir, rangli grafika, dekorativ san'atning ko'pgina asarlarida badiiy ifodalashning vositasidan biridir.

Rangtasvirda ranglarning birligi muhim rol o'ynaydi. Ko'pincha rang toni va yorqinligi bilan bir – biriga yaqin bo'lgan ranglar o'zaro birlashadi. Ranglar o'zaro tonli biriksa, unda sifat o'zgarishlari yuz beradi va jarangdorlik paydo bo'ladi. Agar rang umumiy tondan ajralsa, o'ziga mos kelmasa rangtasvir asarining yaxlitligi buziladi.

Badiiy asar barcha ranglarning o'zaro aloqasi hisobiga quriladi, unda hech qanday rang dog'larini o'zgartirish, kattalashtirish yoki kengaytirish mumkin emas.

Kartinadagi turli ranglarning tonli birligi, o'zaro aloqasi, garmonik mos kelishi kolorit deb ataladi. Kolorit bizning ko'z o'ngimizda dunyoning barcha rang boyligini ochib tashlaydi. U rassomni kartina kayfiyatini berishida yordam beradi. Kolorit tinch, quvonchli, qayguli va hokazo bo'lishi mumkin. Kolorit issiq va sovuq, yorqin va to'q bo'ladi.

Qadimgi davr rassomlarining asarlarini o'rganib chiqsak koloritning rivojlanishi tarixini bilib olishimiz mumkin. Kolorit tushunchasi XV asr oxiridan boshlab paydo bo'ladi. Koloritning imkoniyatlari barokko davrida, ayniqsa impressionistlar ijodida gullab yashnaydi.

XV asrlarda italyan, frantsuz, nemis rassomlari ijodida bo'yoqlar bir – biridan ajratib, mustakil ravishda ishlatilgan. Masalan, Bernard Strigel maktabiga mansub noma'lum rassom tomonidan ishlangan «Avliyo Roxning yarasini davolash» nomli asarida plam rangi yorug'likda ham, soyada ham qizil, faqat yorqinroq yoki to'qroq qilib berilgan. Bu asarda predmetlar yorug'lashib turganga o'xshaydi, qaxramonlar figurasi atrof – muhit bilan yaxlitlashib ketmagan, balki noaniq kul rang fonida yorqin dog' bo'lib ko'rinadi.

Buyumlarning shakl va ranglarini qaqiqiy va tabiiy qolatda ko'rish va qabul qilish odatini ruxshunoslar odatiy ko'rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko'rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang doqlarini ko'rishadi, balki narsalarni qaqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini qam shu qatorda qabul qiladi. Odatiy ko'rish natijasida qavaskor rassomlar qator «kolorit» qarakteridagi xatolarga yo'l qo'yishadi. Ular qavo bulut kunlari erdagi qorni tasvirlashda oq rangdan boshqa rangni ko'rmaydilar. Yashil barglar yoki o't-o'lanlar kunning va ob-havoning turli vaqtida ularning ranglavqalarida bir-xil yashildir, xuddi ularda samoning qavo rang tusi va tabiiy yoruqlikning o'zgargan kuchi o'z ta'sirini o'tkazmayotgandek.

Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko'ra bilishi va moqirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning qaqiqiy borliqdagi ko'rinishini tomosha qilishga muyassar bo'ladi. Aynan shartli rang qaqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo'lib qisoblanadi.

Tajribali rassomlar yoruqlik ranglari ta'siridagi tabiatda sodir bo'layotgan nozik o'zgarishlarni qam bo'yoqlar vositasida moqirona tasvirlaydilar.


Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko'zdan kechirsak, qammasida ko'kimtir – yashil tuslar yiqindisini ko'ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun'iy elektrda yoritilgan asarlarda sarqish-olovrang yoki qizqish koloritni ko'rish mumkin.

V.Serov, I.Repin, M. Nabiev, U.Tansiqboev, R.Axmedov, A.Mo'minov, I. Xaydarov, P. Benkovlarning ko'plab asarlarida sun'iy elektr yoruqligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli qavoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvoxi bo'lamiz.

Naturadan tasvirlanayotgan ranglavxa koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yoruqlik manbai bilan yoritilganligiga boqliq.

Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: «Ranglarni aniq ko'rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko'rishga yordam beradi» deya qat'iy maslahat bergan.





2.5.Asarda havo perspektiasi, yorug' va soylarning qo'llanilishi.

Tasvir tekisligidagi fazo huddi jismlarni hajmini tasvirlashdagi kabi qalamtasvir perspektivasini to'g'ri qo'llab qurish bilan ko'rsatiladi. Agar jismlar va joylar fazoviy muqitda (masalan, manzarada) perspektiva qonun- qoidalariga amal qilmay tasvirlangan bo'lsa, xavo perspektivasidagi rangli va tusli tasvir elementlari fazoni mukammal ko'rsatib bera olmaydi. Yaqinda va uzoqda joylashgan jismlar, joylarni (natyurmortda qam, manzarada qam) qurilishini kuzatuv perspektivasiga qat'iy amal qilgan qolda, tasvirlash lozim.

Borliq - fazoni ko'rsatishda narsalarni uzoqlashgan qolatdagi rang va tus o'zgarish qonuniyatlariga malum darajada amal qilib tasvirlash kerak (qavo perspektivasi). Masofaga qarab buyumlarning perspektiv kattaligi o'zgarganligi kabi, uzoqlashgan sayin uning rangi qam o'zgarib ko'rinadi.

Masofa uzoqlashgan sari birinchi navbatda rangning yorqinligi pasayadi. Uzoqdagi daraxtlarning ranglari yaqindagiga nisbatan xolis-notiniq bo'lib qoladi. Masofaga boqliq qolda tus qam yoruqlik qam o'zgaradi. Och jismlar uzoqlashganda, to'qlashadi, to'qlari esa ocharadi, xira tortadi.

Bunday o'zgarishlarga qavoning qandaydir zichligi sabab jismlardagi rangli nurlarning o'tishi qiyinlashadi. Bundan tashqari bizning qarashimiz va uzoqdagi jism orasidagi qira shaffof qavo ko'pincha qavoranglilik xususiyatida bo'ladi. U uzoqlashgan jismlardagi ranglar bilan qo'shilib, ularga ko'kimtir tus beradi va soyalarini ochartiradi.

Shunday qilib uzoqlashganda barcha ranglar yorqinligini yo'qotib, qavorang yoki ko'kimtir tusga kiradi, soyalari ocharib, och joylari to'qlashar ekan, bunda rang va tusning farqlari kamayadi, qarama-qarshi ranglar kuchsizlanadi, jism chiziqlari, ularning qajmi o'z aniqligini yo'qotadi.

Tasvirda fazo sifatlarini namoyon etish yo'lidan yana biri to'g'ri «shtrixlash» va bo'yoq surtmasidir. Old qatorda joylashgan jismlar chiziqli ishlovi aniqroq va zichroq bo'yoqlar esa quyuq va yorqinroq bo'ladi. Uzoqdagi tasvir yumshoq va ochroq shtrixlanadi, bo'yoqlar esa suyuqroq va xiraroq beriladi.

Shunday qilib, ustoz rassomning mashhur kartinasidan nusxa ko'chirib ishlash jarayonini tugalash vaqti ham yetib keldi. Olingan nusxani yana bir bor ko'zdan kechirish, kamchilliklarni tugatish ishlari bajarilganidan so'ng, qalbimda ajib bir tuyg'u- ustozlar ijodiga yana bir bor chuqur ehtirom va go'zallikdan qoniqish tuyg'usi qamrab olgan edi.

XULOSA.

Tasviriy, san'at o'qituvchilarini shakllantirish uchun bu sohadagi barcha amaliy va nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarurdir. San'at yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari nusxa ko'chirish fanlarini o'qitishda ta'limning zamonaviy va samarali metodlaridan foydalanish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mavzuni o'rganish va uni yoritish chog'ida quyidagi xulosalar dilindi:

- san'at yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari uchun tasviriy san'at asarlaridan nusxa ko'chirish texnologiyasi mavzusi bo'yicha 2-soatlik ma'ruza darsining ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqildi va u amaliyotda sinab ko'rildi;
- san'at asarlaridan nusxa ko'chirish darslarini vangicha pedagogik pedagogik texnologiyalar asosida olib borish samara beruvchi vosita ekanligi e'tirof etildi;
- xalq rassomi O'rol Tansiqboyevning "Angren-Qo'qon tog' yo'li asaridan nusxa olish metodikasi ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanildi;

- rassom-pedagog tasvir san'ati borasida har jihatdan savodxon bo'lishlari bilan birga bu soha sirlarini qiziqarli, sodda, mazmunli holda, o'quvchi yoshlarga o'rgata olish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerakligi dayd etildi ;

Atamalari va iboralarining izohli lug'ati

Akvarel	-(fransuzcha -aquarelle, lotincha - aqua- suv, suvda tez eriydigan va yuviladigan mayin va shaffof bo'yoq.
Aktiv ranglar	-ruhni tetiklashtiruvchi iliq ranglar.
Alaya-prima	-birlamchi tasvir. Bir nafasda, qisqa vaqt ichida yaratish usuli, yo'li. Ko'pincha etyud ishlashda va xomaki nusxa va tasvirlar ishlashda qo'llaniladi.
Animal-janr	-hayvonot dunyosini, jonivorlarni tasvirlovchi tasviriy san'at turi.
Anor- rang	-rang turi, anor guli rangi.
Asosiy ranglar	-tabiatda mavjud sariq, qizil va havo rang.
Axzar	-yashil rang, zumrad rang, Xizr so'zining o'zi ham arabcha bo'lib, «yashil», «yashil bo'lish» ma'nolarini anglatadi. Yashil rang sufiylik ta'limotida ulug' ranglardan biri hisoblanadi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzidir.U samoviy mavjudotlar bilan bog'liq hisoblanadi.
Axromatik rang	-grekcha tussiz (rangsiz) demakdir. Ular oq va qora hamda ularning turlicha ko'rinishi bo'lib, bir-birlaridan yorug'lik kuchlari bilan farq qiladi.
Badiiy	-borliqni, insonni, uning hayotidagi voqealarni, kechinmalarni o'zaro o'xshatish, shakllantirish va ranggo- rang tasvirlash.
Badiiy uslub	-san'atda qo'llaniladigan uslub.

Binafsha	-spektr rangi, binafsha rangiga yaqin.
Blik	-narsalarning eng yaltiroq, shaffof joyi.
Bo'yoqlar	-bo'yash, rang berish, tasvirlash uchun ishlatiladigan moda. Moyli, sirli, nafis va boshqa turlari bor. Bo'yoqlar o'ziga xos xususiyatlari, rangi va ishlash uslubi bilan farqlanadi.
Valyor	-rang tus, rang ohangi degan ma'noni bildiradi.
Van Deyk	-jigarrang. Uni ixtiro etgan XYII mashhur golland rassomi Van Deyk nomiga mansub bo'lib, odatda uni jigarrang deb atamasdan Van Deyk deb ham yuritiladi.
Vatman	-rassomlik va chizmachilikda ishlatiladigan qalin, oliy nav qog'oz.
Gamma	-oralarida muayyan munosabat bo'lgan ranglar sirasi, ranglarning shartli tizmasi.
Gemma	-bo'rtma tasvir, mehr, geometrik unsurlardan tashkil topgan naqsh.
Graver	-metall, tosh, yog'ochga o'yib rasm ishlaydigan yoki nusxa ko'chirish uchun mo'ljallangan tasvirni tayyorlovchi rassom.
Gruntovka	-tasvir zaminini tayyorlash.
Guash	-yelim va rang pigmenti hamda oq bo'yoq aralashtirib tayyorlanadigan, suvda eritiladigan bo'yoq. Rangtasvir badiiy bezash, naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi hamda grafikada keng ko'lamda ishlatiladi.
Gummigut	-1) Issiq mamlakatlardagi ba'zi daraxtlardan olinadigan va sariq bo'yoq uchun ishlatiladigan shira.
Dastgohli san'at	-2) Shu shiradan tayyorlangan bo'yoq.
Devoriy rangtasvir	-tasviriy san'atning bir turi. san'at asarlarini maxsus dastgohlarga o'rnatib qo'yish, ishlashdan kelib chiqqan.
Diorama	-ko'pincha devorlarga, katta o'lchovda ishlanadigan tasvirlar.
Yorug'lik kontrasti	-yoysimon yoki yoy shaklida ishlangan. Rangtasvir asari.
Yorug'lik nurlari	-o'ziga yonma-yon turgan ranglar ta'sirida o'zgarishi.
Yorug'lik shu'lasi	-ko'p aks etsa rang och tusda, kam aks etganda esa to'q tusda idrok qilinadi.
Jaydarirang	-yorug'lik nurlarining buyum yuzasida jilvalanishi, shu'lasi.
Jigarrang	-tasvirlanayotgan narsa, buyumning umumiy rangi yoki yakrang deb ham yuritiladi.
Jilvador	-jigarning rangiga o'xshash ranglarga jigarrang deyiladi. Ba'zi turkiy xalqlarda qo'gg'ir deb ham ishlatiladi.
Zarg'aldoq	-rangdor. Ranglarning tasviriy va ifodali vositalaridan mahorat bilan foydalanish asosida erishiladi.
Zarhal	-spektr rangi, sariq va qizil ranglar uchun oraliq rang hisoblanib, ularning qorishmasidan

	hosil bo'lgan rang.
Zarrin	-tillasimon rang.
Za'faron	-sariq, tiniq sariq. Quyosh nuri ma'nosida ham ishlatiladi.
Zumrad	-rang turi. Sariq tivitlardan iborat bo'lib, sigaret tamakisini eslatadi.
Ijod	- yashil tusli qimmatbaho tosh: chiroyli tovlanishi, yaxshi jilvalanishi, shaffofligi bilan ajralib turadi. Akvarel bo'yog'i tarkibidagi (Izumr- Uno'y zeleno'y) zumradga zumrad rang deb aytiladi.
Ijodkor	-yangilik yaratish jarayoni.
Iliq rang	-yangilik yaratuvchi, izlanuvchi.
Qadimiy	-olovni, quyoshni, qizigan jismlarni eslatuvchi sariq, zarg'aldoq, qizil va ularning aralashmasidan hosil bo'lgan ranglar.
Karmin	-kimyoviy element, yaltiroq va oq metall, bo'yoqlarga qo'shiladigan modda. U yordamida hosil bo'lgan bo'yoq larga qadimiy nomi qo'shib aytiladi.
Kobalt	-qirmizi, qizil rangning bir turi.
Kolorit	-ko'k bo'yoqning bir turi, och havo rang, to'q havo rang yoki nilobi deb ham yuritiladi.
Kontrast	-san'at asaridagi ranglar birikmasi, ularning uyg'unlashib ko'rinishi.
Kofuriy	-qarama-qarshilik, ranglarning o'zaro qarama-qarshiligi. Bir rangning yonida ikkinchi rangning yanada yorqinroq, chiroyliroq ko'rinishi.
Kulrang	-oq rang, poklik va halollik belgisi.
Levkas	-oq va qora ranglar aralashmasidan hosil bo'lgan rang turi.
Lessirovka	-tasvir ishlash uchun tayyorlangan taglik.
Lokal rang	-sayqallash, pardozlash kabi rangtasvir uslubi.
Lola rang	-narsa yoki buyumning asosiy, yetakchi rangi.
Mazok	-lolagun, lola rangiga yaqin rang.
Mayolika	-surtma, mo'yqalamda keskin va uzib-uzib ishlash, bunda asosan mo'yqalamning qog'ozda, matoda qoldirgan xarakterli izlari ko'zda tutiladi.
Mahobatli rangtasvir	-(Malorka orolining qadimiy Maiolcanomidan) sirkor, rangli sopol. -biror binoning peshtoq devorlariga ishlangan katta rangtasvir asari.
Marvarid	-zeb-ziynat buyumi, inju, durning maydasi. Zargarlik hamda amaliy bezakning boshqa turlarida keng qo'llaniladi. Tarkibida ko'kimtir sariq bo'lgan oq rangning tovlanuvchi ko'rinishiga ham rang deyiladi.
Mato	-rangtasvir asarini ishlashda foydalaniladigan material.
Miniatyura	-(italyancha miniatura, lotincha minium qadimda qo'lyozma kitoblarni bezashda

ishlatilgan qizil rang). Bu nom ko'pincha bezak va taqinchoqlarga tushirilgan tasvir, shuningdek, ushoq tasvir deb yuritiladi.

Molbert	-(nemischa Malbrett) – rassom dastgohi, anjomi.
Mo'yqalam	-qilqalam, rassomlar ishlatadigan yozuv va tasvir quroli.
Naturhik	-1.Och zangori rang. Nil daryosi suvi, nil daryosi rangi degan ma'noni ham anglatadi. -2.Ko'k so'zi turkiy so'z bo'lib, moviy osmonni eslatadigan och zangori rang degani. Sovuq ranglarning biri sifatida qadimdan ajdodlarimiz niqobi rangi ramziy ma'nosida ham qo'llab «yomon ko'z»dan asrash ramzi deb hisoblaganlar.
Nusxa ko'chirish	-asl asardan qarab yana bir xuddi o'shanday ish bajarish (taqliddan usul qo'llash)
Nilufar	-(nilufariy, firuzagun) ko'k rang, moviy rang.
Nim sariq	-och sariq, bu nima qo'shimchasi ko'pchilik hollarda och ma'nosini beradi.
Norajvash	-apelsin rangiga yaqin rang.
Nofarmon	-och binafsha, olma guli rangi.
Obraz	-qiyofa, siymo, ifoda talqin.
Ostsurtma	- podmalyovka, dastlabki rang berish.
Olachipor	-rang nomi, tasvirda ranglarning tartibsiz berilishi.
Olov rang	-otash rang, olov rangiga yaqin iliq rang.
Osmoniy	- moviy, lojuvard, nilgun,rang nomi.
Palitra	-(fransuzcha - paletta) rasm ishlayotgan paytda rassom bo'yoqlarini qorishtiradigan yupqa moslama, taxtakach.
Panno	-tasviriy yoki naqshin namoyon, ko'pincha xonalarni bezatish uchun ishlatiladigan, shuning-dek tashviqot va targ'ibot ishlarida foydalaniladigan rangtasvir asari.
Pastel	-rangli qalamcha, bo'r. Shu qalam yordamida ishlangan asarlar ham pastel deyiladi.
Pigment	-turli bo'yoqlar kukuni.
Pistoqi	-rang turi, pista rangiga yaqin rang.
Plakat	-tashviqot va targ'ibot maqsadlarida ishlangan rasmlar.
Plener	-ochiq havo, tabiat, muhit, tabiat manzarasi,tabiat quchog'ida tasvirlash.
Polotno	-bo'z matoga ishlangan rangtasvir asari.
Rang	-biror narsaning o'ziga hos bo'yog'i,tusi
Rang garmoniyasi	-rang uyg'unligi, mutanosibliyi bir-biriga muvofiqlanishi, hamohangligi.
Rang	-to'yinganligi, rangning yorug'lik nurlarini ko'p yoki oz miqdorda aks ettirish xususiyati.

Rang intensivligi	-ranglarning zichligi, to'yinganligi, rangdorligi, ravshanligi.
Rang toni	-tusi vazminligi, ranglarni og'irlik va yengillik taassurotini uyg'otuvchi xususiyat.
Rang tusi	- ko'rinishi: 1.Rangni,uning bir-biridan farq qiladigan har bir ayrim turini bildiruvchi so'z.
anglama	2.Rangning xarakterli xususiyatlaridan biri, ya'ni ranglarning to'lqin uzunligiga qarab Aniqlanadigan xossasi.
Ranglar	-tasviriy san'atda narsalarning bo'yoqlar bilan tez ishlanadigan bir turi.
Ranglarning vazminligi	-rang majmuasi,ranglarning bir-biriga muvofiq tushishi, o'zaro uyg'unlashuvi.
Rangshunoslik	-ranglarning kishida og'ir va yengillik taassurotlarini uyg'otuvchi xususiyati.
Rasm	-ranglar haqida ta'limotning ham nazariy, ham amaliy tomonlarini o'rganuvchi fan.
Rassom	-tasvir, shakl, tekis yuzada qo'lda yaratiladi.
Refleks	-musavvir, suratkash, haykaltarosh, naqqosh, tasvir ifodalovchi mutaxassis. -narsa va buyumlar rangining boshqasida aks etishi.
Ritm	-takrorlanish, rang yoki naqsh unsurini ma'lum tartibda va muayyan oraliqdan bir tekis takrorlanishi.
Sangina	-(fransuzcha sanguina-qonli qizil) qon so'zidan tashkil topgan atama. Rassomlikda ishlatiladigan yumshoq jigar rang, qizil rang ko'rinishidagi, kaolin va temir oksididan tashkil topgan bo'rsimon qalam.
San'at	-arabcha atama bo'lib, hayotdagi narsa va hodisalarni badiiy, obrazli tarzda aks ettiruvchi ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi.
San'atshunos	-san'at tarixi, nazariyasi va uning taraqqiyoti bo'yicha tadqiqot olib boruvchi mutaxassis.
Simvol	-sharpa tasvir.
Sovuq rang	-ko'k zangori, yashil, binafsha kabi ranglar.
Samoniy rang	-samon rangiga o'xshash sariq, tillasimon rang.
Soya	-Narsalarning yorug'lik tushmaydigan qismidagi ko'rinishi.
Suyultirgich	-bo'yoqni eritish uchun ishlatiladigan suyuq moda.
Tasviriy san'a	-(italyancha – terracota –kuydirilgan yer) rangli sirlanmagan sopol,sopol haykalchalar, sopolak.
Texnologiya	-qonun qoida bo'uichq bilimli ishlash jarayoni.
Tush	-qora siyoh. Shu vosita bilan ishlangan asar ham tush deyilgan
Xromatik kontrast	-biror rang tusining u bilan yonma-yon turgan rang ta'sirida o'zgarishi.

Xromatik ranglar	-muayyan rang tusiga ega bo'lgan bo'yoq:qizil, ko'k, yashil va hokazo.
Shtrix	-chiziq, chizgi
Shu'la	-nur.
Ekspozisiya	-ko'rsatish, ko'rgazma, yoyma. Tanlangan tartib bilan joylashtirilgan muzey. Ko'rgazmaga qo'yilgan buyumlar, san'at asarlari.
Etyud	- o'rganish, mashq qilish. Etyud san'atining hamma turida mavjud. Tasviriy san'atda esa rassom izlanishlari,mashqlari, arsalarning o'ziga, asliga qarab, odatda biror katta asar yaratish uchun ashyo bo'lib xizmat qiladigan dastlabki tasvir.
Yarimsoya	-nim soya, narsalarda va tasvirda yorug' bilan soya o'rtasidagi qism.
Qo'shimcha ranglar	-qizil. Sariq, havo ranglarni qo'shish orqali hosil bo'lgan ranglar, ya'ni asosiy ranglarni aralashtirganda hosil bo'ladigan omuxta ranglar.
Qizil	-asosiy rang, spektr rangi, qon rangiga yaqin rang.
Quroq	-turli rangdagi mato, qog'oz parchalaridan yasalgan shakl, tasvir. Kashtado'zlikning maxsus turi bo'lib. u o'ziga xos tayyorlash jarayoniga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Karimov. Hushyorlikka da'vat. Toshkent. O'zbekiston. 1999 yil.
2. B. Boymetov, U.Nurtaev, B. Tojiev. "Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish" ma'ruza matni.
3. N. Egamov "Rangtasvir" o'quv qo'llanma Toshkent 2005
4. M.Nabiev "Rangshunoslik".Toshkent. o'qituvchi 1995
5. N.Hamidova "Tasviriy san'at maxsus metodikasi" Toshkent-2002
6. X. Egamov «Bo'yoqlar bilan ishlash» T-1987 y.
7. M. Nabiyev, B. Azimova «Rasm chizishni urgatish metodikasi» T-1976 y.
8. G.Abduraxmanov "Rangtasvir va kompozitsiyadan metodik tavsiyalar" T.1995g.
9. Энциклопедия художника. Издательство «Внешсигма» 2000 г.
10. Н.В. Одноралов «Материалы в изобразительном искусстве». Изд. «Просвещение» 1983 г.
11. Авторский коллектив. «Школа изобразительного искусства» Изд «Изобразительное искусство», 1989 г.
12. П.Кощель. Энциклопедический словарь школьника. Искусство.М – 2000 г.
13. О.И.Нестеренко «Краткая энциклопедия Дизайна» М.«Молодая гвардия» 1994 г.
14. Н.В. Одноралов «Материалы, инструменты и оборудование в изобразительном искусстве». Изд. «Просвещение» 1988 г.
15. М.Н. Макарова «Перспектива» М – 1989 г.
16. Алексеев С.С. "О колорите" М.1974г.
17. Беда Г.В. "Живопись и нее изобразительные средства" М.1977
18. Смирнов Г.В. "Живопись" М.1975г.
19. Беда Г.В. "Живопись" М.1985г.